

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SHOFIYEV OBIDJON BAXTIYOROVICH

**ERKIN A'ZAMNING ADABIY-ESTETIK QARASHLARI VA BADIY
MAHORATI**

10.00.14 – XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

UO'K: 821.512.133.09-31

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

Shofiyev Obidjon Baxtiyorovich

Erkin A'zamning adabiy-estetik qarashlari va badiiy mahorati 3

Шофиев Обиджон Бахтиёрович

Литературно-эстетические взгляды и художественное мастерство
Эркина Аъзама 35

Shofiyev Obidjon Baxtiyorovich

The literary and aesthetic views and the artistic mastery of Erkin A'zam..... 71

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 77

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SHOFIYEV OBIDJON BAXTIYOROVICH

ERKIN A'ZAMNING ADABIY-ESTETIK QARASHLARI VA BADIY
MAHORATI

10.00.14 – XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/Fil.1097 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Hasanov Shavkat Ahadovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasirov Azimiddin Normamatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yakubov Islomjon Ahmedjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Zokir Azimovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "24" iyul soat 10.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko'chasi, 15-uy. Tel.: +998 (66) 239-11-40, 239-18-92; faks: +998 (66) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (60 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: +998 (66) 239-11-40, 239-18-92; faks: +998 (66) 239-11-40)

Dissertatsiya aytoreferati 2026-yil "13" iyul kuni tarqatildi.
(2026-yil "13" iyul da) 36 -raqamli reyestr bayonnomasi).



U.U. Qobilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

K.A. Qarshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.Q. Tohirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy matnni kompleks tarzda o'rganish, unda inson ruhiyati, shaxs va jamiyat munosabati, obrazlar tizimi, poetik til va estetik tafakkur masalalarini tadqiq etish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Badiiy asarni uning poetik tuzilishi, semantik qatlamlari, psixologik tasvir usullari va badiiy til imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish zamonaviy adabiyot nazariyasining asosiy vazifasi sanaladi. Bunda ijodkorning adabiy-estetik qarashlari, avvalo, badiiy matnning poetik tuzilishi, obrazlar tizimining semantik qatlamlar orqali namoyon bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, muayyan asardagi badiiy psixologizm, ramz va metaforalar tizimi, janrlar transformatsiyasiga muallif qarashlari mutanosibligini o'rganishga jahon adabiyotshunosligida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asarda inson ruhiyatini tasvirlash, uning ichki kechinmalari, ma'naviy iztiroblari va hayotga munosabatini badiiy ifoda etish masalasi adabiyotning muhim estetik vazifalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Inson shaxsiyati, uning ichki dunyosi, ma'naviy izlanishlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari badiiy psixologizm orqali chuqur va ta'sirchan tarzda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, inson konsepsiyasi va uning badiiy talqini adibning adabiy-estetik pozitsiyasini ochib beruvchi muhim konseptual asoslardan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda inson ruhiyati, ichki drammatizm va shaxsiy tajribalarning badiiy talqinini tadqiq etish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, shaxs va jamiyat munosabatini badiiy jihatdan talqin qilish masalasi ayniqsa istiqbol davri adabiyotida yangi bosqichga ko'tarildi. Shu jihatdan, Erkin A'zam ijodini badiiy psixologizm, janr poetikasi, ramz va metaforalar tizimi, poetik til imkoniyatlari nuqtayi nazaridan kompleks tarzda tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur tadqiqot adabiyotning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni anglash, milliy badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim qirralarini aniqlash nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Zero, "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹. Shu jihatdan, Erkin A'zam asarlaridagi inson ruhiyati, shaxsiy iztiroblar, jamiyatdagi ma'naviy o'zgarishlar, milliy qadriyatlar va ijtimoiy muammolar badiiy psixologizm, ramz va metaforalar orqali chuqur talqinga asoslangan, maqsadli ishlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламиини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир" мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017, 4 август.

to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son Qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Jahon adabiyotshunosligida badiiy psixologizm, janr poetikasi, kinoestetik tafakkur, ramz va metafora hamda poetik til masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Indiana Universiteti, Michigan Universiteti (AQSH), Istanbul Universiteti, Anqara Hacı Bayram Veli Universiteti, Ataturk Universiteti (Turkiya), Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti (Ozarbayjon), Humboldt Universiteti, Bonn Universiteti, (Germaniya), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), shuningdek, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zMU hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Termiz davlat universiteti (O'zbekiston)da ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligidagi tadqiqotlar natijasida mavzuga aloqador quyidagi ilmiy qarashlar ilgari surilgan: zamonaviy nasrda qahramon ruhiyati, ichki kechinmalar va botiniy dramatismini badiiy tasvirlash mexanizmlari tadqiq etilgan (Indiana Universiteti, Oksford universiteti, Buyuk Britaniya; Moskva davlat universiteti), badiiy matnda ramz, motiv, metafora va detalning semantik-estetik vazifalari hamda ularning ma'no hosil qiluvchi funksiyalari aniqlangan (Oksford universiteti, Buyuk Britaniya; Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), o'zbek adabiyoti namunalari, xususan, Erkin A'zam ijodi tahlilga tortilgan (Istanbul Universiteti, Anqara Hacı Bayram Veli Universiteti, Ataturk

Universiteti, Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti).

Bugungi kunda dunyo adabiyotshunosligida badiiy matn poetikasi masalalari zamonaviy adabiyotshunoslik tendensiyalari asosida tahlil etilmoqda. Taniqli o'zbek yozuvchisi Erkin A'zam asarlari turli tillarga tarjima qilinib, o'rganilmoqda. Xususan, Turkiya va Ozarbayjonda Erkin A'zam ijodi keng tadqiq etilmoqda.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Keyingi yillarda Erkin A'zam ijodi nafaqat adabiyotshunoslar, balki tilshunos, teatrshunos va kinoshunos tadqiqotchilarning ham e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda. Bu holat adibning zamonaviy o'zbek adabiyotida o'ziga xos badiiy tafakkur va poetik uslub sohibi sifatida namoyon bo'lishi, an'anaviy adabiy qoliplar bilan cheklanib qolmasdan, yangi badiiy izlanishlar va estetik yo'nalishlarni izchil kashf etib borayotgani bilan izohlanadi.

Erkin A'zam o'zining dastlabki ijod namunalari bilanoq ilmiy va adabiy jamoatchilik e'tiborini tortgan. Adib asarlarining dastlabki tahlillari va baholari U.Normatov, N.Xudoyberganov, N.Shukurov, O.Tog'ayev, N.Vladimirova, R.Otayev, H.Boltaboyev, I.Hasanovlar¹ kabi adabiyotshunos va tanqidchilar tomonidan bildirilgan.² Mazkur tadqiqotlarda yozuvchi asarlarining g'oyaviy-mazmuniy xususiyatlari, badiiy uslubi hamda zamonaviy nasr taraqqiyotidagi o'rni haqida muayyan fikrlar ilgari surilgan.

Ayniqsa, mustaqillik yillariga kelib Erkin A'zam ijodiga bo'lgan ilmiy qiziqish yanada kuchaydi. Bu davrda adib ijodining turli qirralarini tahlil qilishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, A.Rasulov, M.Qo'chqorova, S.To'laganova, I.G'aniyev, O.Shofiyev, N.Qobulova, N.Xolmatovalar² ning yozuvchi ijodiga bag'ishlangan alohida tadqiqot kitoblari chop etildi. Shuningdek, Erkin A'zam ijodiga bag'ishlangan ikkita to'plam ham nashr etilgan³.

Shu bilan birga, adib ijodiga bag'ishlangan ayrim maqola va tadqiqotlarda uning badiiy mahoratining muayyan jihatlari yoritilgan. Xususan, Sh.Rizayev, N.Jabborov, Sh.Hasanov, I.Yoqubov, M.Asadov, M.Sheraliyeva, F.Rajabova,

¹ Normatov U. Kichik m'jazizalar // ЎзАС, 1982, 14 май; Худойберганов Н. Ўзи ҳам, сўзи ҳам / Сени ўйлайман, замондош (70–80-йиллар ўзбек насри, шеърини ва адабий танқидчилиги ҳақида ўйлар, мулоҳазалар, мунозаралар). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 90-130; Шукuroв Н., Хасанов И. Камалакдек ранг-баранг // Ёшлик. – 1984. – №12. – Б. 68-71; Тогаев О. Гражданин – инсоннинг шаклланиши (Эркин Аъзамовга) / Прометей олови. – Т.: Ёш гвардия, 1985. – Б. 112-124; Владимиров Н. Новеллачиликдаги изланишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1988. – №6. – Б. 13-16; Владимиров Н. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. – Т.: Фан, 2011. – С. 129-130; Отаев Р. Дилрабо қўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. – 1984. – №2. – Б. 162-163; Болтабоев Х. Ўз сўзини излаб // ЎзАС, 1982, 20 август.

² Rasulov A. Uslub – iste'dod portreti (Erkin A'zam ijodi). Adabiy portret. – Toshkent: Yanti asr avlodlari. – 2013. – 108 b.; K'uchkorova M. Erkin A'zam – sarkazm ustasi. Monografiya. – T.: Fan, 2024. – 264 b.; T'ulaganova S. Erkin A'zam adabiy k'uroni. – T.: Spectrum Media Group, 2025. – 152 b.; G'ani I. Erkin A'zamning badiiy mahorati va adabiy-estetik qarashlari. – Buxoro: Durdona, 2026. – 280 b.; Shofiev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Monografiya. – T.: Qag'us Mediya, 2019. – 172 b.; Shofiev O. "Momaqallidirok ostida sayr" romaniida zamon dramatismini. Ilmiiy risola. – Termiz: TerDU HMM, 2026. – 120 b.; Qobulova N. Erkin A'zam nasrida davr va qahramon talqini. Monografiya. Globe edit, 2021. – 121 b.; Xolmatova N. Erkin A'zamning adabiy-estetik qarashlari. – K'uchon: Ilmiiy zif zakovat, 2023. – 135 b.

³ Erkin A'zam badiiy olami (ilmiiy maqolalar va suxbatlar t'plami). T'plab, nashrga tayirlavchilar: N.Iyulloshov, O.Shofiev. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. – 304 b.; Erkin A'zam ijodi: tahlil va talqin (ilmiiy maqola, adabiy portret va esselar t'plami). T'plavchi va mas'ul muharrir: O.Shofiev. – T.: SANHO, 2025. – 280 b.

¹ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.colimbia.edu, www.umich.edu, www.uchicago.edu, www.carleton.edu, www.tufs.ac.jp, www.uop.edu.pk, www.ras.ru, www.kazanrii.ru, www.anrb.ru, www.ankara.edu.tr, www.hacettepe.edu.tr, www.ege.edu.tr, www.aybu.edu.tr, www.ardahan.edu.tr, www.ikcu.edu.tr, www.hacibayram.edu.tr, www.istanbul.edu.tr, www.usak.edu.tr, www.uludag.edu.tr, www.baskent.edu.tr, www.msgsu.edu.tr, www.science.gov.az, www.dia.edu.az, www.bsu.edu.az, www.adpu.edu.az, www.bau.edu.az, www.manuscript.az, www.kpfu.ru, www.eni.kz, www.manas.edu.kg, www.khsu.ru, www.science.gov.tn va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

S.Qurbonov, Sh.Abdurasulovlarning maqolalarida yozuvchi ijodining turli qirralari xususida muhim mulohazalar bildirilgan¹. Qulman Ochil, Olim Toshboyev, Shodmonqul Salom, Fozil Farhod kabi ijodkorlarning esselari adib ijodiy portretini yanada boyitgan². N.Mahmudov, Sh.Toshxo'jayeva, Z.Umurqulov kabi tilshunoslar tomonidan Erkin A'zam asarlarining lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etilgan³. Tadqiqotchi M.Barotova esa adib asarlarining ingliz tiliga tarjima xususiyatlarini o'rganagan⁴.

Demak, adabiyotshunosligimizda Erkin A'zam ijodining ayrim qirralari muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, uning nasri badiiyatini, xususan, badiiy psixologizm, ramz va metaforalar tizimi, janr poetikasi hamda poetik til imkoniyatlari asosida kompleks tarzda tadqiq etish, shu orqali adibning adabiy-estetik qarashlari va badiiy mahoratini badiiy matn poetikasi orqali yaxlit konseptual tizim sifatida aniqlash masalasi yetarlicha ilmiy tahlil qilinmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universitetining "Hozirgi adabiy jarayon masalalari" mavzusida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Erkin A'zam ijodida badiiy psixologizm, adabiy janr xususiyatlari, kinoqissa estetikasi, metafora va badiiy til poetikasini kompleks

¹ Ризаев Ш. Мурасали умр ҳикояти / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010 йил 15 январь; Жабборов Н. Эркин Аъзамнинг ижод тутуми / Эркин Аъзам ижоди: таҳлил ва талқин (илмий мақола, адабий портрет ва эсселар тўплами). – Т.: SANHOF, 2025. – Б.22-29.; Ҳасанов Ш. Эркин Аъзамнинг "Паризод"и / Эркин Аъзам ижоди: таҳлил ва талқин (илмий мақола, адабий портрет ва эсселар тўплами). – Т.: SANHOF, 2025. – Б.36-44.; Ёқубов И. Қаҳрамонлик модусининг эътиқодий таянчи / Эркин Аъзам ижоди: таҳлил ва талқин (илмий мақола, адабий портрет ва эсселар тўплами). – Т.: SANHOF, 2025. – Б.45-66.; Асадов М. Нега "Момакалдиروق остида сайр" қилиш керак? / <https://oyina.uz>; Шералиева М. Насрда лиризм ва киноя (Эркин Аъзам асарлари мисолида) // Шарқ юлдузи. – 2012. – №1. – Б. 156-161; Ражабова Ф. Адабий қаҳрамон янгида талқинда // Илм сарчашмалари. – 2010. – №4. – Б. 92-94; Шу муаллиф. Индивидуал услубда образ тасвири // Бадий тафаккур ва адабий жараён. Илмий тўплам. – Тошкент: 2010. – №12. – Б. 31-35; Шу муаллиф. Ф. Эркин Аъзам услубида сўз қўллашнинг ўрни // Илм сарчашмалари. – 2013. – №7. – Б. 61-63; Шу муаллиф. Закий қаҳрамонлар талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2015. – №6. – Б. 57-60; Шу муаллиф. Эркин Аъзамнинг сўз қўллаш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2016. – №2. – Б. 73-76; Шу муаллиф. Аччиқ қисматли шахс фожиаси // Шарқ юлдузи. – 2016. – №2. – Б. 130-133; Қурбонов С. "Шоирнинг тўйи" кинесидида кинесиз кинес тасвири / Ўзбекистон ёш тилшунослари ва адабиётшуносларининг аълоналий илмий анжумани материаллари. – Тошкент: 2010. – Б.142-144; Қурбонов С. "Шовқин" романида образлар тизими // Ўзбек тили ва адабиёти. 2012. – №4. – Б.99-104; Шу муаллиф. Ҳўқоя структурасида микромаънларнинг ўрни / Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари. Профессор Ҳ.Ҳомидий таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриоти, 2015. – Б. 248-252; Абдурасулов Ш. Абдурасулов Ш. "Тағноқ қайиқ" ҳайратлари // Тулистон. – 2019. – №6. – Б.24-25.

² Очил Қ. Тангрининг тоши (эссе) // "Jadid" газетаси, 2024 йил 9 август, 33-сон, 6-бет; Тошбоев О. Ботиндаги бўрон / Ботиндаги бўрон (Адабий-илмий мақолалар, публицистика). – Т.: Adabiyot, 2021. – Б.67-84.; Салом Ш. Худога қараб қочган одам (эссе) // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2022 йил, 43-сон; Фарход Ф. Дунёларга сиймаган пари // "Моҳият" газетаси, 2014 йил 10 январь.

³ Махмудов Н. Эркин Аъзам наслининг лингвopoetik мўъжизалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2023, №3. – Б.3-8; Шу муаллиф. Вергул зўрми, нуктами? (Эркин Аъзамнинг «Езувчи» ҳикояси лингвopoetikасига чизилар) / Эркин Аъзам ижоди: таҳлил ва талқин (илмий мақола, адабий портрет ва эсселар тўплами). – Т.: SANHOF, 2025. – Б.10-21; Тошхўжасева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвopoetikаси: Филол.фан-ри б. фалс. д-ри дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.; Умурқулов З. Эркин Аъзамнинг сўз қўллаш маҳорати. – Т.: Tugon zamin ziyo, 2015. – 56 б.

⁴ Баротова М. Эркин Аъзам асарларининг бевосита инглизча таржимасига қос қуёусиятлар: Филол.фан-ри б.фалс.д-ри дисс.автореферати. – Бухоро, 2020. – 53 б.

tarzda yoritish orqali adibning badiiy mahorat va poetik tafakkuriga xos milliylik, zamonaviylik, umumbashariylik singari asosiy tamoyillarni hikoya, qissa, romanlari va adabiy suhbatlarida ifodalangan adabiy-estetik qarashlari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Erkin A'zam nasrida qahramon ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlar va dramatik holatlarning badiiy-psixologik ifodalanish mexanizmlarini hamda ularning poetik vazifasini aniqlash;

hikoya va qissalarda qahramon obrazining psixologik tavsifini shakllantiruvchi badiiy omillar va dramatismni yuzaga keltiruvchi poetik vositalarni tizimli tahlil qilish;

yozuvchi nasrida ijtimoiy muhit, ma'naviy tanazzul va milliy o'zlik muammolarining badiiy talqinini obrazlar tizimi va konflikt strukturasi bilan bog'liq holda o'rganish;

adib romanlarida inson taqdiri, davr ruhi va ijtimoiy voqelik dramatismning badiiy ifodalanishini poetik tafakkur bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilish;

Erkin A'zam ijodida kinoqissa janrining shakllanish jarayoni, janr-uslubiy xususiyatlari va kinoestetik tafakkur bilan bog'liq jihatlari asoslash;

adib kinoqissalarida ramz va motivlar tizimi, ularning semantik qatlamlari hamda badiiy-estetik funksiyalarini aniqlash;

yozuvchi nasrida metaforaning konseptual, semantik va poetik funksiyalarini hamda uning badiiy tafakkurni ifoda etishdagi o'rini belgilash;

adib asarlarida poetik til, tasviriy-ifodaviy vositalar, ramz, metafora va badiiy detallar tizimining o'zaro uyg'unligini tahlil qilish;

mazkur badiiy va poetik omillar asosida adibning adabiy-estetik qarashlari hamda badiiy mahoratini yaxlit tizim sifatida umumlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Erkin A'zamning nasriy asarlari, xususan, hikoya, qissa, roman va kinoqissa kabi janrlarga mansub asarlari olindi.

Tadqiqotning predmetini Erkin A'zam asarlarida badiiy psixologizm, ichki dramatism, janr poetikasi, kinoqissa estetikasi, metafora hamda badiiy tilning tasviriy-ifodaviy imkoniyatlari, adabiy-estetik qarashlari va badiiy mahorati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda badiiy matnni tahlil va talqin qilishning qiyosiy-tipologik, psixologik, biografik, sotsiologik va statistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Erkin A'zam ijodida *ramz*, *kinoya*, *peyzaj*, *xotira*, *orzu* kabi psixologik detallar orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasi ochib berilishi "*Bog'bolalik ko'kaldosh*", "*Anoyining jaydari olmasi*", "*Shoirning to'yi*", "*Piyoda*" singari asarlari misolida oydinlashtirilib, qahramon axloqiy dunyosi, ichki – ruhiy ziddiyatlari hamda ijtimoiy muhit bilan munosabati kabi xususiyatlar markaziy poetik mexanizmga aylanishi asoslangan;

adibning "Shovqin", "Momaqaldiraq ostida sayr" kabi romanlarida Oyravshan, G'ayrat, Iskandar singari obrazlar orqali inson taqdiri, sobiq mafkura va yangi zamon ziddiyati fonida davr ruhi hamda ijtimoiy voqelik dramatismning

badiiy vaqt va makon bilan uzviy bog'liq holda shakllanishi asoslanib, Rais bobo, Opa kabi individual va deputatlar, jurnalistlar, dehqonlar, bank xodimlari singari ijtimoiy qatlamlar o'rtasida koordinativ munosabatlarning adabiy matndagi madaniy, axloqiy ahamiyati dalillangan;

Erkin A'zamning "*Tanho qayiq*", "*Zabarjad*", "*Suv yoqalab*", "*Bahorni quvib*" nomli kinoqissalarida teatr, kino va badiiy nasrning o'zaro tutashtirilishi, hikoya, qissa, roman kabi epik va drama, komediya, tragediya kabi dramatik turlarning sinkretlashuvi, tashqi muhit tasviri bilan bog'liq tabiat hodisalari, yo'l lavhalari, sayohat taassurotlari singari vizual tafakkur elementlarining badiiy matn strukturasiga singdirilib, ma'naviy va ekologik inqiroz o'rtasidagi bog'liqliklar yozuvchi dunyoqarashidan kelib chiqib yoritilishi isbotlangan;

Erkin A'zam asarlarida *Otashqalb*, *Mafraxonim*, *Kattakon* kabi metaforik ifodalar bilan nomlangan insonlar obrazi qahramonlar xarakteri, ijtimoiy kelib chiqishi, tanqidiy, ya'ni satirik va yengil yumor, ya'ni ironik ma'nolarni kitobxonga anglatib, adabiy matnda ruhiyat, xotira va kechinma kabi poetik tushunchalarni birlashtiruvchi lingvomadaniy vosita vazifasini bajarishi ochib berilgan;

adib ijodida *jaydari olma*, *chapak*, *guli-guli*, *momaqaldiraq* singari ramziy obrazlar, *metafora*, *metonimiya*, *tashbeh* kabi tasviriy-ifodaviy vositalar va "*stupka*" (*hovoncha*), *chemodan*, *o'rindi* (*krëslo*) kabi poetik detallar o'zaro uyg'unlashib, asarning adabiy-estetik quvvatini oshirishi, muallif va personaj nutqining ta'sirchanligini ta'minlab, yozuvchi individual uslubini namoyon qiluvchi *javpazak*, *juftigarchi*, *murdasho'y*, *shakarak*, *oshino*, *sho'x-shalayim*, *kinojuvon* kabi maxsus leksik resurslar asarning xalqonaligi hamda milliyligini ifodalashi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari ilmiy jamoatchilikni Erkin A'zam ijodining poetik xususiyatlari, badiiy psixologizm, janr poetikasi va kinoqissa estetikasi kabi muhim qirralari bilan tanishtiradi hamda adibning zamonaviy o'zbek nasridagi o'rni va badiiy mahoratini aniqlashga xizmat qiladi;

yozuvchi nasrida qahramon ruhiyati, ichki dramatism va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatlarni badiiy talqin qilish usullarini o'rganish orqali zamonaviy o'zbek nasrida inson konsepsiyasining badiiy ifodalanish mexanizmlari yoritildi;

Erkin A'zam ijodida kinoqissa janrining shakllanishi, uning janr-uslubiy xususiyatlari va kinoestetik tafakkur bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilish orqali o'zbek adabiyotida intermedial poetika masalalarini o'rganishga muayyan hissa qo'shildi;

adib asarlarida ramz, motiv va metaforalar tizimining semantik va estetik funksiyalarini tadqiq etish natijasida badiiy ma'noni chuqurlashtiruvchi poetik mexanizmlarni tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi;

tadqiqotda aniqlangan poetik til, tasviriy-ifodaviy vositalar va badiiy detallar tizimiga oid xulosalardan badiiy matnni kompleks tahlil qilish amaliyotida foydalanish mumkin;

ishda ilgari surilgan ilmiy xulosalar va tahlil natijalari oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "Badiiy matn tahlili" kabi fanlarni o'qitishda hamda o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda o'qilgan ma'ruzalar, nashr etilgan tezis va maqolalar bilan ta'minlangan. Shuningdek, ishonchlilik tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalarga asoslanganligi, tadqiqot obyekti va predmetining o'zaro muvofiqligi, ilgari surilgan nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotda qo'llanilishi hamda natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Erkin A'zam nasri poetikasiga xos asosiy tamoyil va xususiyatlarning aniqlangani, adib ijodida badiiy psixologizm, janr poetikasi, kinoqissa estetikasi, metafora va poetik tilning o'ziga xos jihatlarini kompleks tarzda tadqiq etilgani, shu orqali adibning adabiy-estetik qarashlari va badiiy mahoratining poetik asoslari ilmiy jihatdan ochib berilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan nazariy xulosalar va tahlil natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "Badiiy matn tahlili" kabi fanlarni o'qitishda, maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda, shuningdek, o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Erkin A'zamning adabiy-estetik qarashlari va badiiy mahoratiga bag'ishlangan tadqiqot natijalari asosida:

Erkin A'zam ijodida ramz, kinoya, peyzaj, xotira, orzu kabi psixologik detallar orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasi ochib berilishi "Bog'bolalik ko'kaldosh", "Anoyining jaydari olmasi", "Shoirning to'yi", "Piyoda" singari asarlari misolida oydinlashtirilib, qahramon axloqiy dunyosi, ichki – ruhiy ziddiyatlari hamda ijtimoiy muhit bilan munosabati kabi xususiyatlar markaziy poetik mexanizmga aylanishi asoslanganiga doir ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan hamda xalqaro hamkorlik asosida tashkil etilgan amaliy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2026-yil 24-apreldagi 1882/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida o'tkazilgan mashg'ulot, seminar va treninglarda badiiy matnni tahlil qilishning zamonaviy usullari qo'llanilib, ishtirokchilarning badiiy matnni anglash, ichki ma'nolarni ochish va mustaqil talqin qilish ko'nikmalari rivojlantirilgan hamda mashg'ulotlarning ilmiy-metodik darajasi oshgan;

adibning "Shovqin", "Momaqaldiraq ostida sayr" kabi romanlarida Oyravshan, G'ayrat, Iskandar singari obrazlar orqali inson taqdiri, sobiq mafkura va yangi zamon ziddiyati fonida davr ruhi hamda ijtimoiy voqelik dramatismining badiiy vaqt va makon bilan uzviy bog'liq holda shakllanishi asoslanib, Rais bobo, Opa kabi individual va deputatlar, jurnalistlar, dehqonlar, bank xodimlari singari ijtimoiy qatlamlar o'rtasida koordinativ munosabatlarning adabiy matndagi madaniy, axloqiy ahamiyati dalillangani haqidagi ilmiy yangiliklardan O'zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogiston bo'limi Qoraqalpogiston gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2021–2023-yillarda olib borilgan Qoraqalpog' og'zaki nasri (janrlar qurilishi, genezisi, obrazlar tizimi, sujet va motivlar poetikasi) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2026-yil 17-martdagi 183/1-son ma'lumotnomasi) Natijada adib ijodining poetik imkoniyatlarini ochib berishga, uning individual uslubi, obraz yaratish mahorati va janr taraqqiyotiga qo'shgan hissasini asoslashga erishilgan;

Erkin A'zamning "Tanho qayiq", "Zabarjad", "Suv yoqalab", "Bahorni quvib" nomli kinoqissalarida teatr, kino va badiiy nasrning o'zaro tutashtirilishi, hikoya, qissa, roman kabi epik va drama, komediya, tragediya kabi dramatik turlarning sinkretlashuvi, tashqi muhit tasviri bilan bog'liq tabiat hodisalari, yo'l lavhalari, sayohat taassurotlari singari vizual tafakkur elementlarining badiiy matn strukturasi singdirilib, ma'naviy va ekologik inqiroz o'rtasidagi bog'liqliklar yozuvchi dunyoqarashidan kelib chiqib yoritilishi isbotlanganiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyati bo'limi tomonidan o'tkazilgan adabiy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va ijodiy uchrashuvlarda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2026-yil 13-martdagi 01-03/116-sonli ma'lumotnomasi). Natijada adabiy tahlil jarayonlarida badiiy vaqt va makon, obraz va konflikt tushunchalarini chuqur anglashga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar takomillashtirilgan hamda yosh ijodkorlarning badiiy tafakkuri rivojlantirilgan;

Erkin A'zam asarlarida Otashqalb, Mafkuraxonim, Kattakon kabi metaforik ifodalar bilan nomlangan insonlar obrazi qahramonlar xarakteri, ijtimoiy kelib chiqishi, tanqid, ya'ni satirik va yengil yumor, ya'ni ironik ma'nolarni kitobxonga anglatib, adabiy matnda ruhiyat, xotira va kechinma kabi poetik tushunchalarni birlashtiruvchi lingvomadaniy vosita vazifasini bajarishi ochib berilgani bilan bog'liq ilmiy xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2026-yil 28-apreldagi 10/288-sonli dalolatnoma). Natijada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda badiiy matnni zamonaviy talqin qilish, vizual tafakkur, ramz va motivlarning mazmuniy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan hamda targ'ibot ishlarining ilmiy-metodik asoslari boyitilgan;

adib ijodida jaydari olma, chapak, guli-guli, momaqaldiraq singari ramziy obrazlar, metafora, metonimiya, tashbeh kabi tasviriy-ifodaviy vositalar va "stupka" (hovoncha), chemodan, o'rindiq (kreslo) kabi poetik detallar o'zaro uyg'unlashib, asarning adabiy-estetik quvvatini oshirishi, muallif va personaj nutqining ta'sirchanligini ta'minlab, yozuvchi individual uslubini namoyon qiluvchi javpazak, juftgarchi, murdasho'y, shakarak, oshino, sho'x-shalayim, kinojvon kabi maxsus leksik resurslar asarning xalqonaligi hamda milliyligini ifodalashi isbotlanganiga doir ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanali tomonidan tayyorlangan

teleko'rsatuvlarda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 18-martdagi 01-16-56-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvlar mazmuni badiiy-estetik jihatdan boyitilgan hamda adib ijodi keng jamoatchilikka chuqur ilmiy asoslangan holda yetkazilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, respublika miqyosida 2 ta hamda 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda, shuningdek, kafedraning ilmiy seminarlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta monografiya, 1 ta ilmiy risola, 17 ta maqola chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (10 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 206 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti bayon qilingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "*Yozuvchi asarlarida badiiy psixologizm va ichki drammatizm tasviri*" deb nomlanib, unda adib hikoya va qissalari misolida qahramon ruhiyati, ichki ziddiyatlar va dramatik kechinmalarining badiiy ifodasi tahlil etilgan. Mazkur bob ikki fasldan tashkil topgan. "*Hikoyada qahramon ruhiy kechinmalari va ichki ziddiyatlarining badiiy-psixologik ifodalanishi*" deb nomlangan ilk faslda Erkin A'zam hikoyalarida qahramon ruhiy kechinmalarining badiiy-psixologik ifodasi tadqiq etilgan.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda psixologizm badiiy matnning ichki qatlami – qahramonning ruhiy kechinmalari, ongosti jarayonlari, hissiy holatlarini chuqur va tabiiy tarzda tasvirlashda muhim uslubiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Bu uslub adabiyotni insonning ichki dunyosini ochish vositasiga aylantiradi.

A.B.Yesin psixologizmni "adabiyotning o'ziga xos vositalari orqali xayoliy shaxs (adabiy personaj) his-tuyg'u, fikr va kechinmalarini yetarlicha to'liq, batafsil va chuqur qilib tasvirlash"¹ sifatida ta'riflaydi. Demak, badiiy psixologizm asar qahramonining ichki muvozanati, qarama-qarshiliklari va ularning o'zgarish dinamikasini ochishga qaratilgan.

¹ Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1988. – С. 18.

Badiiy psixologizm nafaqat adabiy personajning ichki kechinmalarini ifodalash vositasi, balki inson ruhiyatini keng kontekstda – falsafa, estetika va ijtimoiy ong bilan uyg'unlikda anglash usulidir. Bu uslub adabiyotning ichki dinamikasini tashkil etuvchi asosiy pog'onalardan biriga aylangan. Mazkur yondashuvni o'zbek adabiyotida muvaffaqiyatli tadbiiq etgan mualliflardan biri Erkin A'zamdir. Adib asarlarida psixologizm estetik tafakkurning o'zak tamoyili sifatida namoyon bo'lib, qahramonlar dunyoqarashi, hissiy hayoti va ichki qarama-qarshiliklari orqali inson tabiatiga xos murakkabliklar badiiy ifoda topadi. Uning hikoya janridagi ijodi ham shunga yaqqol misol bo'lib, u insonning sodda tashqi qiyofasi ortidagi murakkab ruhiy holatlarni mahorat bilan tasvirlay oladi.

Xususan, "Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoyasi tahlili jarayonida Ko'kal obrazi misolida otasizlikdan kelib chiqqan ruhiy og'riq, mehr va suyanchga bo'lgan ichki ehtiyoj, yashirin iztirob hamda so'zsiz psixologizm ta'sirchan yoritilishi ko'rsatildi. Qahramonning "bepadar" degan haqoratga reaksiyasi, uning jimligi, keskin harakati va keyinchalik Doniyorov bilan bog'liq dramatik lahzalar orqali adib inson qalbida yillar davomida yig'ilib kelgan og'riqni mahorat bilan ochadi. Bu hikoyada psixologizm to'g'ridan-to'g'ri bayon emas, balki harakat, sukut va ramziy vaziyat orqali ifodalanishi adib mahoratining muhim belgisi sifatida baholandi.

"Anoyining jaydari olmasi" hikoyasida Ramazon obrazi orqali tashqi soddalik va ichki ma'naviy boylik o'rtasidagi ziddiyat psixologik jihatdan tahlil qilindi. Qahramonning Boysunga muhabbati, Barnaul bilan bog'liq sog'inchi, hayotdagi mag'lubiyatlari va orzu-armonlari uning ruhiy dunyosidagi ichki konfliktini kuchaytiradi. Hikoya markazidagi "jaydari olma" ramzi tashqi jihatdan oddiy, ammo botinam boy va samimiy inson tabiatini anglatuvchi badiiy timsol sifatida talqin qilinadi. Ramazon obrazi orqali Erkin A'zam jamiyat e'tiboridan chetda qolgan, ammo qalbida ezgulik va insonparvarlikni saqlab qolgan shaxsning psixologik portretini yaratgan.

"Bahor" va "Bahorni quvib" hikoyalarida Jabbor Imomov obrazi orqali insonning muhit bilan kelisholmasligi, orzu va voqelik o'rtasidagi ziddiyat, ruhiy beqarorlik va ichki izlanishlar peyzaj bilan uyg'un holda ifoda etilgani ko'rsatilgan. Bahor manzaralari bu hikoyalarda shunchaki tabiat tasviri emas, balki qahramon ichki dunyosida kechayotgan uyg'unish, sog'inchi, iztirob va erkinlikka intilishning estetik holati sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan adib bu hikoyalarda peyzajni psixologik tahlilning faol vositasiga aylantiradi.

Adibning "Soy bo'yi, chimzor..." hikoyasi zamonaviy o'zbek nasrida psixologizmning yorqin ifodalaridan biri sifatida e'tiborga molikdir. Bu asarda muallif inson ruhiyatining chuqur qatlamlariga kirib boradi, uning ichki iztiroblari, bolalik xotiralarini, xayol va orzularini badiiy shaklda ifoda etadi.

Hikoya markazida Jalil Norboyevning shaxsiy hayoti, kasbiy iztiroblari va ichki dramtizmi turadi. Uning hayotida real voqelik bilan ichki orzular olami o'zaro qorishib ketadi va shuning o'zi asardagi psixologizmni ta'minlaydi. Adabiyotshunos olimi Mashhura Sheraliyeva bu holatni shunday yozadi: "... *"Soy bo'yi, chimzor..." hikoyasi qahramoni go'yo ikki olamda yashaydi, hikoyadagi badiiy reallik ham shunga muvofiq ikkiga bo'lingan – qahramonning o'spirinligi,*

soy bo'yi, chimzor bilan bog'liq xotiralaridan irreal olam va hozir, shu yerdagi hayoti kechayotgan reallik".¹

Shuningdek, "Piyoda", "Ta'ziya" va "Stupka" hikoyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, Erkin A'zam nasrida qahramon ichki dunyosi, uning ma'naviy izlanishlari va muhit bilan ziddiyati markaziy o'rin tutadi. "Piyoda" hikoyasida Berdiboy obrazi orqali an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy hayot sur'ati o'rtasidagi qarama-qarshilik, insonning ichki erkinlikni saqlab qolishga intilishi badiiy ifoda etilsa, "Ta'ziya"da Salim Qaror obrazi misolida totalitar muhitda shaxs ongida yuzaga keladigan ikkilanish, ichki e'tiqod va tashqi mafkuraviy talablar o'rtasidagi ziddiyat psixologik jihatdan ochib beriladi.

"Stupka" hikoyasida esa muhit va inson munosabati, yot makonda yashash fojiasi, muros va sinuv muammosi ramziy obrazlar orqali talqin qilinib, "stupka" badiiy belgisi inson taqdirining fojiaiy tarangligini ifoda etuvchi markaziy poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Umuman, mazkur hikoyalarda qahramonning ichki dramtizmi, ma'naviy iztiroblari va jamiyat bilan ziddiyati adib poetikasining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli "*Qissalarda qahramon obrazining psixologik tavsifi va dramtizmi*" deb nomlangan bo'lib, unda Erkin A'zamning qissalarida qahramon obrazining psixologik tavsifi va dramtizmi tadqiq etilgan. Qayd etilganidek, 1970–80-yillardan boshlab o'zbek qissachiligida ichki tahlil, psixologizm, ma'naviy-axloqiy muammolarni chuqur yoritish tendensiyasi kuchaygan. Erkin A'zam ana shu jarayonda qissa janri imkoniyatlarini kengaytirgan, qahramon botinini tashqi voqealardan ko'ra murakkabroq va dramatikroq tarzda tasvirlagan adib sifatida namoyon bo'ladi.

Bu davr qissachiligini tadqiq qilgan A.Ulug'ov shunday yozadi: "70–80-yillarda paydo bo'lgan bir qator qissalarda esa qalamga olinayotgan hodisani shunchaki hikoya qilishdan ko'ra, uni ich-ichidan yoritishga, badiiy idrok qilib ko'rsatishga harakat, moyillik kuchaydi. Hodisalardagi qarama-qarshiliklarni bor bo'yicha tasvir etish orqali hayotning murakkabliklarini, turmushning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini tadqiq qilish, inson shaxsining tabiiy-ijtimoiy qiyofasini o'z ziddiyatlari bilan har tomonlama ochishga intilish o'sdi"².

Adib qissa janrida ham samarali ijod qilib, bu yo'nalishda bir qator salmoqli asarlar yaratgan. Erkin A'zam qissalarida psixologizm nafaqat badiiy uslub sifatida, balki ma'naviy tahlilning o'zagi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif qahramonlarning ichki holatini ochishda lirik-psixologik bayon, ichki monolog, ichki suhbat, xotiralar, ramziy holatlar, lirik detallar kabi badiiy vositalardan ustalik bilan foydalanadi. Adib yaratgan qahramonlar o'z hayotini faqat tashqi voqealar bilan emas, balki ichki kechinmalar va ruhiy tazyiqlar bilan baholaydi. Ular real voqelik bilan murosaga kela olmaydigan, ruhiy tarozisida har bir voqeani qayta baholaydigan, fikriy tanqid bilan hayotga qaraydigan obrazlardir. Ularning ichki dunyosidagi ziddiyat va to'qnashuvlar tashqi nizolardan ko'ra qattiqroq va dramatikroq aks etadi. Erkin A'zamning ushbu uslubi, ya'ni tashqi voqelik ortidagi

¹ Шералиева М. Эркин Азам ижодининг романтик босқичи хусусида // Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies, 2021, № 5(57). – 98 б.

² Улуг'ов А. Қиссачилигимиз қирралари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 15.

ruhiy voqelikni ochish uning nasrini milliy psixologizmning yangi bosqichiga olib chiqadi.

“Javob” qissasida adib Nuriddin Elchiyev obrazi orqali inson va jamiyat, vijdon va sukut, adolat talabi va ijtimoiy befarqlik o’rtasidagi dramatik to’qnashuvni ko’rsatib beradi. Elchiyev ma’naviy mas’uliyatni his etadigan, haqiqat va adolatga intiluvchi qahramon sifatida gavdalanar ekan, uning asosiy kurashi tashqi harakatdan ko’ra ichki savollar, vijdon azobi va javob izlash jarayonida kechadi. Asardagi “javob” tushunchasi rasmiy tushuntirish emas, balki insonning o’z vijdoni, hayot va jamiyat oldidagi ma’naviy hisoboti sifatida talqin qilinadi. Qahramonning ruhiy tubanlashuvi, qo’rquv, ikkilanish va kechikib anglangan mas’uliyat holati psixologik jihatdan ifoda etilgan. Qahramonning dramtizmda Frans Kafkaning “Jarayon” asaridagi Yozef K. obrazi bilan ma’naviy o’xshashlik ko’zga tashlanadi. Har ikki qahramon ham irodali, ideallarga sodiq, biroq adolatsiz tizim va jamiyat loqaydligi fonida ruhan tanazzulga yuz tutadi. Ular jamiyatning befarqligidan aziyat chekishadi. Kafkaning asarida Yozef K. uchun “ayb” tushunchasi abstrakt va noma’lum manbaga ega bo’lsa, Erkin A’zamda Elchiyev “javob” izlash jarayonida, aksincha, haqiqat va adolatni talab qiladi. Unga qarshi kuchlar aniq, ammo jim. Bu tuzumning eng xatarli jihati: javob bermaslik orqali insonni ruhiy inqirozga yetaklash.

“Otoyining tug’ilgan yili” qissasida esa Asqar Shodibek o’g’li obrazi orqali to’g’riso’zlik, ichki erkinlik, murossasizlik va jamiyatdagi soxtalikka qarshi ma’naviy qarshilik muammosi ochib berilgan. Qahramonning har qanday vaziyatda ham haqiqatni yuzga aytishga intilishi uning hayotini ziddiyatlarga to’ldirsa-da, aynan shu jihat uning ma’naviy qimmatini belgilaydi. Asqar obrazida yumor va dramtizm uyg’unligi adib psixologik mahoratning muhim belgisi sifatida ko’rindi. Professor Hamidulla Boltaboyev ham “Otoyining tug’ilgan yili” qissasiga to’xtalar ekan, uni nafaqat individual qahramon tafakkuri orqali, balki asarning umumiy ruhi, ohangi va g’oyaviy yo’nalishi orqali ham tahlil etadi¹. Bu qissani tahlil qilgan adabiyotshunos M.Sheraliyeva shunday yozadi: “...muallif simpatiyasi to’laligicha Asqar Shodibekov tomonida turadi. Bu o’rinda yozuvchi ideali bosh qahramon ilgari surayotgan, himoyasiga chiqayotgan ma’naviy-axloqiy me’yor sifatida ko’rinadi. Yozuvchi idealiga ko’ra, inson ma’naviy-axloqiy me’yorga amal qilishga qolmay, boshqalar bilan munosabatda ayni qadriyatlarni himoya qila olishi ham kerak”².

M.Sheraliyeva fikrida Asqar Shodibek o’g’li nafaqat ichki adolat va vijdon egasi, balki uni jamiyatda ifoda etish, himoya qilish qobiliyatiga ega bo’lgan faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etuvchi qahramon sifatida ko’riladi.

“Shoirning to’yi” qissasi tahlilida ijodkor taqdiri, millat xotirasi, haqiqat va yolg’on to’qnashuvi keng ijtimoiy-falsafiy asosda talqin qilindi. Asarda yubiley marosimi tashqi syujet markazi bo’lsa, ichki dramtizm qahramonlarning ruhiy holati, tarixiy xotira, vijdon va soxtalik o’rtasidagi qarama-qarshilik orqali ochiladi. Otashqalb shoir qiyofasi haqiqat va sadoqat ramzi, Oqsoqol shoir xiyonat

va ikkiyuzlamachilik timsoli, Ma’furaxonim mafkuraviy nazorat ifodasi, Ma’shuqaxonim soxta afsona ramzi, nogiron muxlis esa sukutdagi vijdon va haqiqat hayqirig’i sifatida namoyon bo’ladi. Ayniqsa, Jasur shoir nutqi orqali asarda rasmiy afsona bilan haqiqiy tarixning dramatik to’qnashuvi yuksak nuqtaga chiqishi ko’rsatiladi.

Umuman olganda, Erkin A’zam qissalarida psixologizm faqat qahramon ichki holatini ochish vositasi emas, balki ijtimoiy va ma’naviy tanqid usuli hamdir. Adib qahramonning botiniy dramasi orqali jamiyatdagi soxtalik, befarqlik, mafkuraviy bosim, tarixiy adolatsizlik, ma’naviy parchalanish kabi muammolarni keng falsafiy kontekstda ko’rsatadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “*Adib romanlarida davr talqini va adabiy-estetik qarashlar*” deb nomlanib, ikki faslni o’z ichiga olgan. “*Shovqin*” romanida milliy o’zlik va ma’naviy qadriyatlar talqini” deb nomlangan birinchi faslda mazkur asarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetik strukturalari va obrazlar tizimi ilmiy tahlil qilingan.

Erkin A’zam zamonaviy o’zbek adabiyotida nasr sohasida barkamol ijodkor sifatida tanilib, uning romanchiligi yozuvchining badiiy izlanishlarining tabiiy davomi sifatida namoyon bo’ladi. Adibning “Shovqin” romani uning ijodiy evolyusiyasida muhim bosqichni belgilab, inson ma’naviyati, milliy o’zlik va jamiyatdagi ma’naviy tanazzul muammolarini keng falsafiy va badiiy qamrovda yoritadi. Romanda kinochilar hayoti tasviri orqali aslida XX asr oxiridagi mafkuraviy inqiroz, ma’naviy qashshoqlik va inson qiyofasining buzilishi kabi jarayonlar ramziy va psixologik vositalar orqali ifoda etilgan.

XX asrning 80–90-yillari Sovet Ittifoqi uchun tanazzul va parchalanish davri bo’ldi. Iqtisodiy inqiroz, siyosiy beqarorlik, jamiyatdagi ma’naviy bo’shliq insoniyat hayotining barcha jabhalarida sezilarli iz qoldirdi. Milliy davlatchilik, milliy madaniyat va urf-odatlar inkor etildi, jamiyatda ma’naviy qadriyatlar inqirozi avj oldi. Ana shu davrni Erkin A’zam “Shovqin” romanining asosiy voqealariga zamin sifatida tanlaydi.

Roman voqealari Farhod Ramazon xotiralarini orqali, Moskva muhitida kechishi ham muhim badiiy-falsafiy ma’no kasb etadi. Moskva asarda faqat geografik makon emas, balki sho’rolar mafkurasining markazi, inson ongi va ruhiyati ustidan nazorat o’rnatilgan ramziy muhit sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi ushbu makon orqali tashqi erkinlik ortidagi ma’naviy bo’shliq, milliy ildizlardan uzilish va ichki qiyofasizlik jarayonlarini ko’rsatadi. Asardagi “shovqin” timsoli ham tashqi muhitdagi g’alayon emas, balki inson qalbidagi beqarorlik, ruhiy bo’linish va vijdon iztirobining badiiy ifodasi sifatida ochiladi.

Asarda ma’naviy tanazzul individual taqdirlar misolida chuqurlashtiriladi. Munira, Elmira Kamolova, Gulya Lagutina, Sobir Mansurovich kabi obrazlar orqali milliy qadriyatlardan uzilish, ma’naviy qiyofasizlik, assimilyasiya va ichki bo’shliq muammolari badiiy talqin qilinadi. Ayniqsa, ayollar obrazlari orqali yozuvchi milliy madaniyatdan begonalashuv va ma’naviy inqirozni jamiyat fojiasi darajasiga ko’taradi.

Masalan, Gulgunoy Mansurova, keyinchalik Gulya Lagutina romandagi duragay, ildizsiz, milliy qiyofasini yo’qotgan qahramon sifatida talqin etiladi.

¹ Болтабоев Х. Ўз сўзини излаб... // ЎзАС. 1982 йил, 20 август.

² Шералиева М. Хозирги ўзбек насрида кино: ижтимоий-психологик омиллари, поэтик тизимдаги ўрни. Монография. – Тошкент: Akademiashar, 2016. – Б. 66.

Yozuvchi uning portretini aniq va ta'sirchan nutqi orqali yaratadi. Gulya Lagutininaning o'z og'zi bilan aytgan so'zlari uning ruhiy parokandaligini ochadi:

“... – Hali aytdim-ku, chalaroq bo'lsayam o'zbek qiziman. Pasportimni ko'rsataymi? Ota-buvamiz g'irt toshkentlik. O'zi Toshkentda tug'ilib o'sganman, maktabniyam Toshkentda bitirdim. Oyimning palagi esa – polyak, ota-onasi urush yillari Ukrainadan kelib qolgan ekan. To'g'ri, u hozir dadam bilan birga turmaydi, ajrashishgan. Bizniki o'zi ana shunday baynalmilal oila! Asl otimni aytaymi? Gulgun! Buvim qo'yanlar. U kishi meni Gulgunoy deb atardilar. Gulgunoy Mansurova erga tegib, bu yerlarda Gulya Lagutina bo'lib ketdi-da! Zamona zayli, bilasiz. Biroq turmushda omadim kelmadi. Talabaligimda er qiluvdim, bir yilga ham bormay ajrashdik”¹.

Sobir Mansurovich obrazida esa sho'ro mafkurasi shakllantirgan, o'z irodasi va milliy o'zligidan ajralgan “sovet inson” tipi fosh etiladi. Shu tariqa roman milliylikdan chekinishning nafaqat shaxsiy, balki umummilliy oqibatlarini ochib beradi.

Romanning g'oyaviy-ma'naviy qatlamlaridan yana biri oila va otalik mas'uliyati masalasi bilan bog'liq. Yozuvchi oila barqarorligi va millat bardavomligini, avvalo, otaning ma'naviy o'rni bilan bog'laydi. Asarda otasizlik, ma'naviy suyanchsizlik va nosog'lom muhit oqibatlari Baxtiyor kabi qahramonlar taqdiri misolida ko'rsatiladi. Farhod Ramazon xotiralaridagi momosi nasihatlarini orqali esa turmush, qavm, tarbiya va avlod masalalarining milliy-ma'naviy asoslari yoritiladi. Shu jihatdan “Shovqin”da oila muammosi shaxsiy emas, balki millat ma'naviyati va kelajagi bilan bog'langan falsafiy masala sifatida talqin qilinadi.

Romanda Farhod Ramazon obrazi ma'naviy markaz vazifasini bajaradi. Uning xotiralarini, ichki monologlari, iztirob va mulohazalari orqali yozuvchi insonning o'z o'tmishi, vijdoni va milliy o'zligi bilan yuzma-yuz kelish jarayonini tasvirlaydi. Qahramon hayotini qayta baholar ekan, tashqi muvaffaqiyatlar ortidagi ruhiy bo'shliqni angelaydi va vijdon mezoniga tayana boshlaydi. Uning ichki burilishi romanning falsafiy nuqtasini belgilab, ma'naviy uyg'onish va o'zlikka qaytish jarayonini ifoda etadi. Shu ma'noda Farhod Ramazon obrazi shaxsiy qismat doirasidan chiqib, butun bir avlodning ruhiy dramasini mujassamlashtiradi.

Umuman, “Shovqin” romanida ma'naviy tanazzul, milliy o'zlikdan uzilish, oilaviy qadriyatlar yemirilishi va inson ruhiyatidagi iztiroblar o'zaro uzviy bog'liq holda badiiy talqin qilingan. Asarda psixologizm, ichki monolog, xotira oqimi, kinoya va ramziy obrazlar orqali jamiyatdagi axloqiy buzilish hamda inson qalbidagi vijdon dramasi chuqur ochib berilgan. Shu jihatdan roman faqat sho'rolar davrining inqiroz manzarasini emas, balki insonning ma'naviy poklanishi, milliy o'zlikni anglashi va ruhiy uyg'onishi haqidagi falsafiy-badiiy asar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Bobning ikkinchi fasli “Momaqalldiroq ostida sayr” romanida davr ruhiyati va inson kontsepsiyasi deb nomlanib, unda asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, qahramonlar ruhiyati, zamon va shaxs munosabati hamda dramatik

poetikasi tahlil qilingan. Faslda roman zamonning beqaror, tahlikali va ziddiyatli mohiyatini inson taqdiri orqali ochib bergan asar sifatida baholanadi.

Adibning ilk romani – “Shovqin” uning nasriy uslubi yangi marraga ko'targan bo'lsa, ikkinchi romani – “Momaqalldiroq ostida sayr” yozuvchining ijodiy evolyusiyasida yanada puxta va chuqur falsafiy bosqichni ifodalaydi. Yangi roman Erkin A'zam qalamida shakllangan falsafiy tahlil, achchiq realizm va ijodiy izlanishlarning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ladi. “Momaqalldiroq ostida sayr” romani nafaqat voqealar silsilasi yoki syujetlar yig'indisi, balki inson ongida kechayotgan iztiroblar, ikkilanishlar va ruhiy o'zgarishlarning badiiy in'ikosi hamdir. Asarda inson va jamiyat munosabati davrning ijtimoiy-siyosiy manzaralarini belgilab berishga xizmat qiladi.

Romandagi markaziy badiiy ramz – momaqalldiroq inson va tabiat, shaxs va zamon munosabatlarining metaforasi sifatida zuhur etadi. Yozuvchi ushbu tabiat hodisasi orqali hayotning turfa o'yinlari, taqdirning kutilmagan burilishlari va insonning azal hukmi qarshisidagi o'jizligini badiiy yo'sinda tasvirlaydi. Roman qahramonlari – Iskandar, Oyravshan, G'ayrat hayot so'qmoqlarida turli sinovlarga duch keladilar. Ta'bir joiz bo'lsa, hayot momaqalldiroq'i ichida yashaydilar. “Momaqalldiroq” ba'zan tashqi voqelik – inson va jamiyat munosabatlari ko'rinishida, ba'zan esa inson qalbidagi ichkin iztiroblar shaklida namoyon bo'ladi.

Jiydali qishlog'i voqealar tizimini birlashtiruvchi markaziy tugun, ya'ni badiiy mehvar vazifasini bajaradi. Iskandar, Oyravshan va G'ayratni aynan Jiydali bog'lab turadi. Har bir qahramonning hayot yo'li, izlanishlari va sargardonliklari qanchalik turfa yo'nalishda kechmasin, ularni ma'naviy-ruhiy jihatdan birlashtiruvchi ildiz ana shu makonga, bolalik xotiralariga borib taqaladi. Voqealar Jiydalidan boshlanadi, asar xotimasida ularning uzoq ayro yo'llardan keyingi uchrashuvi ham shu maskanda kechadi. Shu ma'noda Jiydali nafaqat voqealar tizimidagi joy nomi, balki hayot davomiyligi, inson xotirasi va ma'naviy ildizga sodiqlik ramzi sifatida bo'y ko'rsatadi.

Iskandarning kasbi prokurorlik, ya'ni asosiy vazifasi – qonun va adolatni muhofaza qilish. Ammo uning shaxsiy hayotida qonunchilik ramziy ma'noda yemirilgan. Ushbu paradoksal holat yozuvchining ijtimoiy-axloqiy qarashini ochadi. Inson faqat tashqi nizomga emas, ichki qonunga – vijdon yasog'iga ham bo'ysunmog'i darkor. Iskandar esa qonunni kasbiy maydonda muhofaza qilaturib, shaxsiy hayotda uni alayno-oshkor buzadi. Muallif bu orqali ikki turdagi “qonun”ni – institusional va ma'naviy qonunni qarama-qarshi qo'yadi. Bu jihatdan Iskandar obrazi Dostoyevskiyning Raskolnikoviga yaqin. Ikkalasida ham o'zini oqlashga urinish bor. Uning ichki dramaci ham shaxsiy, ham ijtimoiy tabiatga ega. Hoji bobo orqali ifodalangan “hokimiyat tuzilmasi” insonni shaxsiy qarorlardan mahrum etib, uni manfaatlar tizimiga bog'laydi. Hoji boboning “o'g'lim” degan birgina so'zi badiiy jihatdan o'ta muhim (“... – Gap bunday, o'g'lim, – dedi u kuyovining kiftiga qo'lini qo'yib. – Avvalo, yigit kishi ko'chaning shaltog'ini ro'zg'orga yaqinlashtirmaydi. Shu noma'qulchilikka borgan erkak uning izini yo'qotishni ham bilishi kerak, xo'pmi?”

¹ Аъзам Эркин. Шовқин / Шовқин (роман, қисса, ҳикоялар). – Тошкент: O'zbekiston, 2011. – Б. 37.

*Iskandar gapning mazmunidan ham ko'ra aytilish ohangidan hayratda qoldi. Bu odam uni birinchi marta "o'g'lim" deb atamoqda edi, birinchi marta! "Kuyov", "kuyovboy", hatto "og'ayni", bugun esa – "o'g'lim", o'g'lim! To'rt qizni "o'g'il" atab bo'lmas ekan-da"*¹. Bu xitob ortidan Iskandar faqat kuyov emas, balki tizimning merosxo'ri, uning qonuniyatlariga tobe vorisga aylanadi. Shu bilan qahramonning shaxsiy erkinligi so'nadi, tanlov imkoniyatini yo'qotadi.

Yozuvchi ushbu epizod orqali insonning ruhiy asoratga tushib qolish jarayonini ko'rsatadi. Iskandar qudratga suyangan sari vijdonidan uzilib boradi, ma'naviy jihatdan fatoratga yuz tutadi. Uning fojiasi shundaki, hayot qonuniyatlariga oson-o'ng'ay moslashadi, ammo insoniylik marom-me'yorlaridan tobora uzoqlashadi.

"Momaqaldiroq ostida sayr" romani qahramoni Oyravshan ham ruhiy va ijtimoiy sinovlar qozonida qaynab, o'z "men"ni anglash sari intilgan, charxi kajraftor "tuhfa etgan" ziddiyatlar aro to'g'ri yo'lni topishga uringan murakkab kechmishli ayol sifatida namoyon bo'ladi.

Oyravshan obrazi Erkin A'zam ijodida ayol ruhiyati tasvirining yangi bosqichidir. U murakkab ijtimoiy-ruhiy jarayonni boshidan kechirayotgan, zamon va muhit bilan kurashayotgan shaxs sifatida gavdalanadi. Romanda Oyravshandagi ichki tub burilishlar tashqi o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlarga moslashish, orzu va reallik o'rtasidagi nomuvofiqlik orqali jadriy ravishda ochib beriladi.

Oyravshanning sevgi dramasi, shaxsiy kechmishi, taqdir sinovlari ayol tabiatining ko'p qirrali manzarisini aks ettiradi. Adib uni ideallashtirmaydi, balki inson sifatidagi o'zliklari, xatolari va kuchli jihatlari boricha tasvirlaydi.

Oyravshan – ijodkor, shoira, joni jasadiga sig'magan ayol. Maktabdoshi, ko'ngil qo'ygani G'ayrat bilan unashtirilgan qizgina ko'chadoshi, amaldor Iskandarning tuzog'iga tushadi. Qahramon hayotini izdan chiqaradigan asosiy burilish nuqtasi – Iskandar bilan bog'liq voqeadir. Shundan uning hayoti o'stin-ustun bo'ladi. Nomusi toptalgan, aldovlarga ishongan Oyravshan ota-onasi oldiga qayta olmaydi, viloyat televideniyesidan ham surgun etiladi. Ana shunday og'ir ruhiy va ijtimoiy zo'riqish pallasida Oyravshan poytaxtga – o'zini qayta topish, yangi hayot qurish, ruhiy tiklanish yo'liga chiqadi. Uning qalbidagi iztirob, singan ishonch va buzilgan hayot manzarasi uchun Toshkent yangi ma'naviy hudud, yangi imkoniyatlar makoniga aylanadi. Yozuvchi Oyravshanni aynan shu jarayonda yangi ruhiy metamorfoza sari yetaklaydi: u fojiadan yiqilmaydi, aksincha, qaddini adl tutishga, shaxsiy qadrini va ijodkorlik orzu-umidlarini saqlab qolishga intiladi.

Oyravshan taqdirida Opa va Rais obrazlari muhim o'rin tutadi. Opaning ko'magi, avvalo, ijodiy maydonda namoyon bo'ladi: Oyravshan she'rlarini jurnalda chop ettirib, uni adabiy jamoatchilikka tanitadi. Poytaxtga doimiy ro'yxatga qo'ydirish – ma'muriy to'siqlarni yengib berish esa Opaning yetilib kelayotgan yangi iste'dod taqdiri uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olganini ko'rsatadi.

Romandagi dachadagi epizod hamda ishxona muhitida ayrim amaldorlarning unga nisbatan axloqsiz munosabati orqali yozuvchi jamiyatda "boshi ochiq" ayolga

nisbatan shakllangan stereotiplar va ayrim erkaklar tafakkuridagi ma'naviy inqirozni fosh etadi. Shu tariqa Oyravshan obrazi ijtimoiy bosim ostida ham o'z "men"ni saqlab qolishga intiladigan, ichki poklanish (katarsis) va ma'naviy tiklanish sari qadam qo'yayotgan murakkab badiiy qiyofa sifatida namoyon bo'ladi.

"Momaqaldiroq ostida sayr" romanida Iskandar–Oyravshan–G'ayrat o'rtasidagi munosabatlar tizimida G'ayrat obrazi muhim o'rin tutadi. Uning hayotiy qarashlari va axloqiy prinsiplari Iskandarnikidan tubdan farq qiladi. U to'g'riso'zligi, keskinligi va haqiqatparastligi tufayli hayotda ko'p bora mag'lubiyatga uchraydi. Aynan shu xislatlar G'ayratning ijtimoiy muhit bilan ziddiyatga kirishishiga sabab bo'ladi. Xususan, maktab davridayoq komsomol safidan chiqarilishi bu holatning yaqqol dalilidir.

G'ayrat va Oyravshan o'rtasida shakllangan munosabatlar unashtirish bosqichigacha yetib borsa-da, Iskandarning nomardlarcha harakati ushbu ikki qahramon taqdirini keskin o'zgartirib yuboradi. G'ayratning Oyravshanga bo'lgan munosabati samimiy bo'lib, bu muhabbat hech qachon hirs yoki manfaat tusini olmaydi. G'ayratning hayotiy pozitsiyasi to'g'rilik va axloqiy poklikka asoslanadi.

Adib romanda G'ayrat, Iskandar va Oyravshan obrazlari orqali davr, jamiyat va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlar hamda ziddiyatlarni real hayot manzarasida aks ettiradi. Asar voqealari mamlakatda istiqldan keyingi o'n-yigirma yilliklar davri ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muhitda kechadi. Ma'lumki, Erkin A'zam ijodida davr va inson konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Tarixiy voqelik, avvalo, inson taqdiri orqali badiiy ifodalanadi. Zero, adabiyot raqamlari va quruq faktlarga tayanmaydi, bil'aks, insonning jamiyatdagi o'rni, ichki iztiroblari, orzu-umidlari orqali davr manzarisini ochib beradi. Asar voqealari asosan Surxon vohasida kechib, mazkur makon yozuvchi uchun muayyan davrning ijtimoiy muhitini namoyon etuvchi badiiy maydon vazifasini o'taydi. Asardagi sel ramziy manzarasi shunchaki tabiiy hodisa emas, balki so'nggi o'n yilliklardagi ijtimoiy, ma'naviy larzalarni ifodalaydi.

Asardagi dramatismning mohiyati inson taqdiri bilan uzviy bog'liq. Yozuvchi fojiani faqat yo'qotish yoki halokat sifatida emas, balki anglanish va poklanish jarayoni sifatida ko'radi. Bu nuqtayi nazardan Erkin A'zam estetikasida fojia orqali poklanish g'oyasi ustuvor. Inson hayotidagi og'riq va iztiroblar tasodifiy emas. Ular orqali ruh tozalanadi, inson o'z ma'naviy chegaralarini anglaydi. Romanda dramatism hayot falsafasiga aylangan – insonni sinovlarsiz, azoblarsiz anglab bo'lmaydi; azobsiz ma'naviyat shakllanmaydi. Fojia – insonning ruhoniy hayotidagi eng oliy darajadagi estetik holat, chunki u orqali odamzod o'zligini, vijdonini va tirikligining bosh ma'nosini anglaydi.

Romanda fojiaiy voqelik, xiyonatlar va inson taqdiridagi qaltis burilishlar asosiy o'rinda. Bu hol milliy adabiyotimizdagi silliqroq, siporoq, ijobiy xotimaga odatlangan kitobxon uchun og'ir tuyulishi mumkin. Biroq maqsad – hayotni boricha ko'rsatish, jamiyatdagi muammolarni haqqoniy tarzda ifoda etish emasmi? Shu jihatdan roman an'anaviy adabiy me'yordan farq qilib, "achchiq realizm" yo'nalishiga yaqin turadi.

¹ Аъзам Э. Момакалдиروق остида сайр. – Тошкент: SAHHOF, 2025. – Б. 35.

Iskandarning o'limi – asar finalidagi eng muhim nuqta. U shaxsiy fojiani ham, umumiy ma'naviy xulosani ham anglatadi: inson qudrat va shahvat uchun yashasa, oxiri baribir qulash va mag'lubiyatdir. Bu yakun orqali muallif milliy adabiyotimizda kamroq qo'llanadigan, ammo juda kuchli ta'sir ko'rsatadigan achchiq realizmni muvaffaqiyat bilan amalga oshirgan. Sel voqeasi va Iskandar fojiasi bir-biriga uyg'un ramziy halqa. Sel qanday qilib ko'priki kunfayakun etgan bo'lsa, Iskandarni nafs shunday mahv etadi. U xudo bergan imkoniyatni rad etgandek, yaltiroq kelajakni ko'zlaydi. Oqibatda o'z imonini pullaydi. Oyravshan ham hayotning o'tkinchi hoyu havaslariga beriladi. Bu yo'lda nomusini, vijdonini sotadi. Ammo u o'z xatolarini vaqtida anglay oladi. Alaloqibat poklanish, ma'naviy qayta tug'ilish yo'lini tanlaydi. G'ayrat esa jamiyatning beqaror qonunlari orasida ham o'zining odamgarchiligi, halolligi va hayotiy pozitsiyasini yo'qotmagan qiyofada gavdalanadi. Sirasini aytganda, yaqin kechmishimiz rost va raso tarzda qalamga olingan "Momaqaldiroq ostida sayr" asari milliy romanchiligimiz tadjrida muhim qadam, inobatli hodisadir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "*Erkin A'zam ijodida kinoqissa janrining badiiy-estetik talqini*" deb atalib, "*Kinoestetik uslub va badiiy tafakkur*" hamda "*Kinoqissalarda ramz va motiv poetikasi*" nomli fasllardan tashkil topgan.

"*Kinoestetik uslub va badiiy tafakkur*" faslida kinoqissa janriga oid nazariy qarashlar tahlil qilinib, Erkin A'zam kinoqissalarida Intermedial poetika, ssenariy tafakkuri va montajli badiiy uslub xususiyatlari ochib berilgan.

Ma'lumki, o'zbek adabiyotida kino tafakkuri ta'sirida yaratilgan asarlar kam sonli bo'lsa-da, ayrim ijodkorlar ijodida bu holat kuzatiladi. Xususan, Sharof Rashidov, Jamol Kamol, Usmon Azim qalamiga mansub ayrim kinoqissalar bunga misol bo'la oladi. Biroq mazkur ijodkorlar tajribasida kinoqissa epizodik holatda namoyon bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda Erkin A'zam ijodida kinoqissalar izchil va tizimli ravishda shakllangan badiiy janr sifatida salmoqli o'rin tutayotganini kuzatish mumkin. Adibning kinoqissalari jamlanib nashr etilgan "Tanho qayiq"¹ kitobi mazkur adabiy shaklning ijodkor individual uslubi doirasida mustahkam va barqaror badiiy model sifatida qaror topganini tasdiqlaydi.

Professor Shavkat Hasanov kinoqissaning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ifodalaydi: "Birinchidan, kinoqissa dramatik asarlardagi sahna ko'rinishlaridek alohida epizodlardan, manzaralardan tashkil topadi; ikkinchidan, nasriy asarlardagidek, batafsillikni ko'tarmaydi; uchinchidan, dialoglarning dramatism asosiga qurilishi va tomoshabopligi bilan dramatik asarlarga yaqin turadi. Shuningdek, nasriy asarlarda ekspozitsiya syujet tarkibiy qismlaridan oldin, keyin, oxirida, ba'zan aralash tarzda kelishi mumkin. Kinoqissalarda, asosan, dramatik asarlardagi kabi muqaddimada keladi. Nasriy asarni kino tasmasiga ko'chirish oson emas. Chunki kino imkoniyatlari o'qib, uqiladigan badiiy so'zning jilosini, tarovatini, zavq-shavqini qismangina ko'rsatishi mumkin, xolos"².

Erkin A'zamning shu kungacha "Suv yoqalab", "Zabarjad", "Qarzdor", "Parizod", "Qovunfurush orol", "Tanho qayiq", "Oshiqko'ngil Pakana", "Bahorni

quvib", "Mashshoq" kinoqissalari e'lon qilingan. Ularning aksariyati ekranlashtirilgan. Mazkur asarlar asosida yaratilgan filmlarning qator xalqaro va mintaqaviy kinofestivallarda e'tirof etilgani kinoqissalarning badiiy salohiyatini amalda tasdiqlaydi.

Dissertatsiyada Erkin A'zamning "Suv yoqalab", "Zabarjad", "Qarzdor" va "Bahorni quvib" kinoqissalari misolida janrning intermedial tabiati, kinoestetik tafakkur va ramziy-psixologik poetikasi tahlil qilingan.

Adib kinoqissalarida voqealarni ketma-ket bayon qilishdan ko'ra, epizodik qurilish, montajli kompozitsiya, vizual tafsilot va ichki dramatismga tayanuvchi badiiy fikrlash ustuvorlik qiladi. Shu jihatdan bu asarlarda kino estetikasi tashqi shakl emas, balki matn tuzilishini boshqaruvchi ichki poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

"Suv yoqalab" kinoqissasida Bolta Mardon obrazi markazga chiqarilib, uning qaqragan bog'iga suv keltirish yo'li tashqi harakat bo'lishi bilan birga, ma'naviy-ruhiy safar sifatida ham talqin qilinadi. Qahramonning har bir xonadonga kirishi, turli insonlar bilan uchrashuvi va o'tmish xotiralari bilan yuzlashuvi orqali asarda montajli kompozitsiya yuzaga keladi. Bolta Mardon bir vaqtning o'zida sobiq rais, el dardini his qiladigan inson, mehribon va talabchan ota sifatida ochiladi. Uning farzandlari bilan munosabati, Sharofat bilan bog'liq armonlari, qizi Zulfiyaga mehri hamda "umr suvday oqib ketadi" mazmunidagi hayotiy xulosalari kinoqissaning falsafiy yukini belgilaydi. Shu tariqa, suv obrazi hayot oqimi, vaqt va inson umrining ramziga aylanadi.

Asarning eng muhim dramatik nuqtalaridan biri qizi Zulfiya bilan bog'liq epizodlarda namoyon bo'ladi. Bolta Mardonning qiziga bo'lgan otalik mehri va ichki iztirobi ochiq izohlarsiz, qisqa replikalar va holat tasviri orqali ifodalanadi. Ota va qiz o'rtaqidagi munosabatni kinoqissa asosida film yaratgan kinorejissyor Jahongir Qosimov shunday ta'riflaydi: "Suv yoqalab" filmidagi qalbimni og'ritgan, shu bilan birga, ovuntirgan yana bir joyi ota qizining uyiga kelgan lavha. Bolta Mardon qiziga zarur bo'lgan dorilarni olib, uyiga kirib kelganida qizi "Dadajon, pulim yo'qligi uchun shu dorilarni ololmay yurgandim", deb aytolmaydi. "Dadajon, qarang, qo'limni ari chaqib oldi", deydi-yu, otasini mahkam quchoqlab yig'lab yuboradi. Eh, tarbiyaning go'zalligini qarang! Ota qizini avaylab, "Meni kechir, qizim, seni yaxshiroq joyga uzatishim kerak edi", deydi. Qizi esa otasini avaylaydi: "Dadajon, qiz bola palaxmon toshi. Siz otidingiz, men shu joyga tushdim. Buni taqdir deydingiz. O'zingizni ayblamang!"¹

"Zabarjad" kinoqissasida esa ayol ruhiyati, ichki aybdorlik tuyg'usi va ma'naviy murakkablik markaziy o'rin tutadi. Zabarjad tashqi jihatdan shaddod, o'jar va mustaqil ayol sifatida ko'rinsa-da, uning botinida otasi o'limi bilan bog'liq chuqur ruhiy jarohat saqlanib qolgani ochib beriladi. Ona tomonidan aytilgan og'ir ayblovlar, qabristondagi faryod va o'tmish bilan yuzlashuv lahzalari qahramon psixologiyasidagi barqaror aybdorlik narativasini yoritadi. Darvoqe, Zabarjad obrazi milliy adabiyotda shakllangan an'anaviy stereotip ayol qahramonlaridan

¹ Qarang: A'zam E. Tanho qayiq: kinoqissalar. – Toshkent: Sharq, 2017. – 256 b.

² Hasanov Sh. Erkin A'zamning "Parizod"i / Erkin A'zam ijodida: tahlil va talqin (ilmiy maqola, adabiy portret va esselar to'plami). – Toshkent: SANHOF, 2025. – B. 38.

¹ "Suv yoqalab" kechadigan umr iztiroblari" (Kinorejissyor Jahongir Qosimov bilan suxat. Suхbatdosh: Muxtasar Tojimatova) // Yangi Ўзбекистон, 2023 йил 3 август.

keskin farqlanadi. Erkin A'zamning o'z ta'biri bilan aytganda, "qahramonni kitobxonlar mazaxo'rak bo'lib qolgan kechagi adabiyotdan emas, bugungi voqelikdan qidirsangiz – Zabarjaddan battarlari ham topiladi"¹.

Zabarjad – zamonaviy o'zbek adabiyotida an'anaviy ayol obrazi qoliplarini buzgan, ruhiy jihatdan murakkab va hayotiy real qahramondir.

"Qarzdor" kinoqissasida Bahrom obrazi orqali zamonaviy o'zbek jamiyatidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, qarindosh-urug'chilik, fidoyilik va mas'uliyat muammosi talqin qilingan. Muallim bo'la turib, ro'zg'or tashvishi bilan kirakashlik qiladigan Bahrom shaxsiy manfaatlaridan ko'ra oila va yaqinlari dardini ustun qo'yadi. Asarda uning akasi, opasi, tog'asi, jiyanlari va qo'ni-qo'shnilar bilan munosabatlari orqali ma'naviy burch tuyg'usi kuchli psixologik asosda ochib berilgan. Biroq qahramonning botinida shaxsiy dard, yolg'izlik va marhum xotini Zumrad xotirasi bilan bog'liq og'riq ham saqlanib turadi. Fayzixol bilan bog'liq xayoliy epizodlar, onasiga nisbatan keskin chiqishi va "hammadan qarzdorlik" hissi orqali uning ichki dramatiizmi ta'sirchan yoritiladi. Shu bilan birga, asarda milliy mentalitetga xos qondoshlik, oila butunligi va o'zaro mas'uliyat g'oyasi markaziy ma'naviy qadriyat sifatida asoslanadi.

"Bahorni quvib" kinoqissasida inson xotirasi, o'tmish bilan yuzlashuv va kechirilmagan muhabbatning ruhiy oqibatlari badiiy tahlil qilingan. Rohat opaning 35 yildan so'ng Archali qishlog'iga qaytishi geografik harakat emas, balki ma'naviy safar sifatida talqin etiladi. Asarda partiyaviy bosim tufayli uzilgan muhabbat, yo'qotilgan obro' va kechikkan anglash fojiasi xotira qatlamlari orqali ochiladi. Qudrat Ramazonning nabirasi Rohatoy bilan uchrashuv esa vaqt va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy uzviylikni ifoda etuvchi ramziy nuqta sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonning ichki monologlari orqali o'tmishni romantiklashtirish emas, balki uni boricha qabul qilish, illyuziyadan xalos bo'lish va hayotga nisbatan munosabatni qayta belgilash jarayoni ko'rsatiladi.

Umuman, Erkin A'zam kinoqissalarida inson taqdiri, xotira, ma'naviy iztirob, muhit bilan ziddiyat va hayot ma'nosi kabi masalalar kinoestetik tafakkur asosida badiiylashtirilgan. Bu asarlarda kadrsimon epizodlar ketma-ketligi, montaj vazifasini bajaruvchi ichki monolog va tabiat manzaralari, ramziy detallar tizimi janr poetikasining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois Erkin A'zam kinoqissalari zamonaviy o'zbek nasrida intermedial poetika, vizual tafakkur va psixologik-falsafiy tahlil uyg'unlashgan yetuk badiiy namunalar sifatida baholanadi.

Bobning "Kinoqissalarda ramz va motiv poetikasi" faslida Erkin A'zam kinoqissalarida ramziy obrazlar, motivlar va ularning qahramon ruhiyati, xotira qatlamlari hamda asarning falsafiy-estetik mazmunini ochishdagi badiiy vazifasi tahlil qilingan.

Ramz tushunchasi falsafa, estetika va adabiyotshunoslikda ko'pqirrali nazariy kategoriya bo'lib, u inson tafakkuri va madaniy tajribasining fundamental mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Ernest Kasserer ramzni insonning voqelikni

anglash shakli deb izohlab, uni til, mif, din va san'at qatoridagi asosiy ramziy tizim sifatida baholaydi¹; Paul Rikyor esa ramzning yashirin ma'noni ochish xususiyatini ta'kidlab, uni talqinga undaydigan poetik belgi deb qaraydi². Shu nuqtayi nazardan ramz badiiy matnda shunchaki uslubiy bezak emas, balki ma'no yaratishning asosiy vositasi bo'lib, ayniqsa kinoqissa janrida keng tavsif o'rni bosuvchi, yuqori semantik zichlikka ega poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Kinoqissada ramziy detal qahramon ichki dunyosi, vaqt-makon munosabati va asarning falsafiy qatlamlarini ixcham, lekin ta'sirchan shaklda ifodalaydi.

Erkin A'zam kinoqissalarida ramziy detallar syujet to'qimasiga tabiiy singdirilgan bo'lib, ular qahramon ongida kechayotgan ichki harakat, xotira va ma'naviy anglash jarayonlarini bilvosita ochib beradi. Ayniqsa, yo'l, makon va tabiat obrazlari adib kinoqissalari poetikasida barqaror semantik yuklama kasb etadi. "Bahorni quvib"da Rohat opaning Archali qishlog'iga qaytishi, "Suv yoqalab"da Bolta Mardonning suv bo'ylab harakati tashqi safar emas, balki o'tmish bilan yuzlashuv, xotira qatlamlarini faollashtirish va hayotni qayta baholashga olib boruvchi ichki refleksiv jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu ma'noda yo'l motivi adib kinoqissalarida jismoniy harakat emas, balki shaxsiy taqdir, umr mazmuni va o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi markaziy xronotop vazifasini bajaradi.

"Suv yoqalab" kinoqissasida suv motivi ko'pqatlamli poetik tizim sifatida shakllangan. Suv bir vaqtning o'zida poklanish, hayot oqimi, vaqt, adolat va ma'naviy yorug'lik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bolta Mardonning suv yoqalashi tashqi harakat emas, balki umr xronotopi doirasida kechadigan ma'naviy sarhisob jarayonidir. Qishloqning turli nuqtalaridagi to'xtashlar, odamlar bilan muloqotlar va o'tmish xotiralari suv harakati bilan bog'liq holda ma'nolashadi. Tut daraxti, tahorat sahnasi, Hamro bobo bilan suv, haqidagi suhbatlar hamda asar finalida "suv o'miga olov oqishi" manzarasi suv motivining ilohiy, axloqiy va halokatli semantik qirralarini birlashtirib, uni kinoqissaning markaziy ma'no yaratuvchi obraziga aylantiradi.

"Zabarjad" kinoqissasida suv motivi yanada individual-psixologik mazmun kasb etib, qahramon ruhiyatidagi aybdorlik, iztirob va ichki tiklanish jarayonlari bilan bog'lanadi. Daryoda cho'kish epizodi hayot va o'lim chegarasiga aylanib, Zabarjad taqdiridagi fojeaviy burilish nuqtasini belgilaydi. Vannaxonada suvning qon tusini olgandek tuyulishi, yomg'ir sahnalari, shifobaxsh buloq va buloq suvi solingan shisha idishning sinishi kabi detallar suv obrazining fojeaviy xotiradan ichki iztirob va ruhiy yangilanishgacha bo'lgan semantik trayektoriyasini ochib beradi. Shu tariqa, "Suv yoqalab"da suv ijtimoiy-ma'naviy mezon sifatida namoyon bo'lsa, "Zabarjad"da u shaxsiy xotira, gunoh va poklanish poetikasiga aylanadi.

"Suv yoqalab"da Hamro boboning "Suv keltirganu suvni ko'rganning yo'li oydin bo'ladi" hamda "Suv – yorug'lik" degan ta'kidlari kinoqissa poetikasida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu iboralar suvni ezgulik, poklik va haqiqat bilan

¹ "Носоз арава қачон юради?" (Ёзувчи Эркин Аъзам билан суҳбат. Суҳбатдош – Гулноз Сатторова) / Эркин Аъзам. Эрталабки хаёллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 496.

¹ Cassirer E. An Essay on Man. New Haven: Yale University Press, 1944. – P. 25

² Ricoeur P. The Symbolism of Evil. Boston: Beacon Press, 1967. P. –15–18.

bog'langan qadriyat sifatida mustahkamlab, asardagi axloqiy mezon tizimini belgilaydi. Ushbu epizodni professor Islomjon Yoqubov shunday talqin qiladi: "Rivoyat va naqlar bilan ziynatlangan samimiy suhbat-muloqotning lirik harorati, donishmandona ruhi, ilohiy mazmuni kinoqissaning ta'sir kuchini oshirgan. Ayni paytda, undan dunyo moliga zinhor mehr bermagan Hamro bobo (remarkadagi: "*Chol qo'lidagi qog'ozni bepisandgina yonboshiga tashlab, duoga qo'l ochadi*" degan izohni eslang. – I.Yo.) ichki bir tuyg'u bilan kechagi noxush tushning ishoraviy mazmunidan tashvishda ekanini ham ilg'ash mumkin. Uning fotiha asnosida Bolta Mardonga: "*Umringizga baraka bersin, Boltaboy, omin!*" tarzida uzoq umr tilashi bejiz bo'lmay, mo'ysafid inson umrining yelday kelib, selday ketishi, foni dunyoning barcha g'avg'osi o'tkinchi ekanini yaxshi biladi"¹.

Erkin A'zam kinoqissalarida devonasifat yoki telbaroq obrazlar ham muhim ramziy-falsafiy vazifa bajaradi. "Suv yoqalab"dagi O'rin Jaga tashqi ko'rinishidan janjalkash va tartibsiz shaxs bo'lib tuyulsa-da, aslida u vijdon, sadoqat va haqiqat pozitsiyasini ifoda etuvchi qahramon sifatida ochiladi. "Tanho qayiq"dagi Orol bobo ham atrofdagilar nazdida "devona" bo'lib ko'rinsa-da, aslida u yo'qotilgan tabiiy muhit, xotiraga sadoqat va ma'naviy q'arshilik ruhini o'zida mujassam etgan markaziy obrazdir. Quloqboshi, quruqlikdagi qayiq, tom ustidagi qayiq-yotoq kabi makon detallari uning ongidagi xayol va reallik, o'tmish va hozirgi kun o'rtasidagi ziddiyatni vizuallashtiradi. Orol boboning qayiqsozlikni shogirdlariga o'rgatishi esa hunarni emas, balki umid, vorisiylik va kelajakka ishonchni uzatish ramzi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, Erkin A'zam kinoqissalarida ramz va motivlar poetikasi qahramon ichki dunyosi, xotira qatlamlari, vaqt-makon munosabati va asarning falsafiy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi asosiy badiiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Yo'l, suv, daraxt, qishloq, yomg'ir, buloq, qayiq kabi obrazlar tashqi voqelik detallari emas, balki inson taqdiri, ma'naviy iztirob, o'zlikni anglash va umr mazmunini badiylashtiruvchi semantik dominantalar sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Erkin A'zam kinoqissalarida ramziy detallar janr poetikasining shakllantiruvchi asoslaridan biri bo'lib, adibning intermedial, psixologik va falsafiy tafakkurini yorqin namoyon etadi.

Dissertatsiyaning so'nggi, ya'ni to'rtinchi bobi "*Metafora va badiiy til poetikasi*" deb nomlanib, ikki fasldan tarkib topgan. Mazkur bobning "*Adib ijodida metaforaning konseptual va poetik funksiyasi*" deb atalgan faslida Erkin A'zam asarlarida metaforaning nafaqat tasviriy-ifodaviy vosita, balki badiiy tafakkurni shakllantiruvchi konseptual mexanizm sifatidagi o'rni, uning qahramon ruhiyati, g'oyaviy mazmun va poetik strukturani ochishdagi vazifasi tahlil qilingan.

Erkin A'zam ijodida metafora faqat tasviriy-ifodaviy vosita emas, balki badiiy tafakkurning konseptual mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Adib qahramonlar ruhiyati, ijtimoiy muhit va ma'naviy konfliktlarni to'g'ridan-to'g'ri ta'riflashdan ko'ra, ularni obrazli ishora, ma'no ko'chishi va ramziy tuzilmalar orqali ifoda etadi. Shu jihatdan, metafora asarning tashqi bezagi emas, balki uning semantik va

aksiologik tizimini shakllantiruvchi poetik markaz vazifasini bajaradi. Zamonaviy metafora nazariyasida, xususan, J. Lakoff, M. Jonson, P. Rikyor va N.Fray¹ qarashlarida metafora ma'no yaratish, bilish va tafakkurni tashkil etuvchi model sifatida talqin qilinishi Erkin A'zam nasrini o'rganishda ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adib ijodida ayrim asarlar bevosita markaziy metafora asosida qurilgan bo'lib, ularda qahramon, syujet, ramziy detal va muhit tasviri yagona semantik o'zak atrofida uyushadi. Shu jihatdan Erkin A'zamning "Guli-guli" qissasi zamonaviy o'zbek nasrida total metaforaga qurilgan eng yorqin namunalardan biri hisoblanadi. Asar markazidagi Mo'min-Maymun obrazi yakka personaj emas, balki ma'naviy tanazzul, dehumanizatsiya va ijtimoiy muhit ta'sirida insonlik sifatlarining yemirilishi modelini ifoda etuvchi markaziy metafora vazifasini bajaradi. U orqali yozuvchi insonning biologik-instinktiv darajaga tushib ketishi, milliy va axloqiy me'yorlardan uzilishi, jamiyatda ma'naviy inqirozning kuchayishini ramziy-poetik shaklda ko'rsatadi.

"Guli-guli" qissasida markaziy metafora suv ramzi bilan yanada chuqurlashadi. Mo'min-Maymunning suvni bulg'ashi sahnasi axloqiy va ma'naviy ifloslanishning ko'pqatlamli badiiy ifodasi sifatida keladi. Bu yerda "bulg'ash" harakati faqat fizik emas, balki milliy xotira, ma'naviy poklik va ijtimoiy me'yorlarning buzilishiga ishora qiladi. Maymun obrazi insonning ma'naviy qulashi ramzi bo'lsa, suv poklanish va tozalik timsoli sifatida namoyon bo'ladi; shu ikki metafora o'rtasidagi qarama-qarshilik esa asarning ichki poetik konfliktini belgilaydi. Shu tariqa qissada metafora ijtimoiy-axloqiy mazmuni tashuvchi total model darajasiga ko'tariladi va asarning butun ma'no tuzilishini boshqaradi.

Asardagi dehumanizatsiya modeli Frans Kafkaning "Evrilish"² asari bilan tipologik jihatdan qiyoslanishi mumkin. Biroq Kafkada metafora individual va ekzistensial xarakter kasb etsa, Erkin A'zamda jamoaviy-tarixiy va ijtimoiy-axloqiy mazmunga ega bo'ladi. Mo'min-Maymun faqat bir shaxsning axloqiy qulashi emas, balki muayyan mafkuraviy muhitda shakllangan umumiy tipni ifoda etadi. Shu bilan birga, "Guli-guli"da kinoya va parodiya ham markaziy metaforaning ijtimoiy-ideologik qatlamini ochishga xizmat qiladi. "Kallikka qarshi kurash", "bosh podsho", Natalya Dmitriyevna obrazi kabi intertekstual va parodik holatlar orqali yozuvchi mustabid muhitning sun'iyligi, ikkiyuzlamachiligi va axloqiy inqirozini fosh etadi.

Erkin A'zamning "Qiyofadosh" hikoyasida ham metafora poetikasi markaziy o'rin egallaydi. Bu asarda "qiyofa" tushunchasi tashqi o'xshashlikni bildiruvchi detal emas, balki shaxs qadri, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy tanazzulni ochuvchi badiiy-ijtimoiy metafora vazifasini bajaradi. Ahror Sayfiddinovning "Falonchi Falonchiyevich"ga o'xshashligi unga ijtimoiy imtiyoz va maqom keltiradi, ammo aynan shu tashqi qiyofa uning ichki erkinligi va shaxsiy mohiyatini yemiruvchi omilga aylanadi. Qahramonning taqdiri orqali yozuvchi

¹ Ёқубов И. Қаҳрамон молдусининг эътиқодий таъриқи / Ёркин Аъзам ижоди: таҳлил ва таълиқин (илмий мақола, адабий портрет ва эсселар тўплами). – Тошкент: SAHHOF, 2025. – Б. 49-50.

¹ Lakoff & Johnson. *Metaphors We Live*, Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 3; Ricoeur. *The Rule of Metaphor*. Toronto: University of Toronto Press, 1975. 1980. – P. 68–71; Frye N. *Anatomy of Criticism*. Princeton: Princeton University Press, 1957. – P. 71–75.

² Кафка Ф. *Эврилиш / Эврилиш: ҳикоялар ва мактублар*. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – Б. 22-88.

shaxsga sig'inish, tashqi belgiga qarab qadr yaratish va insonni mohiyatiga ko'ra emas, qiyofasiga qarab baholash psixologiyasini tanqid qiladi. Vayrona bog', chakalakzor, omborxonadagi po'panak bosgan "dohiylar" surati kabi ramziy detallar esa mazkur metaforaning ijtimoiy-axloqiy mazmunini yanada chuqurlashtiradi.

"Chapaklar va chalpapaklar mamlakatida" qissasi esa Erkin A'zam nasrida totalitar tafakkur va ommaviy konformizmni metaforik usulda ochib bergan muhim asarlardan biridir. Bu yerda "chapak" detali oddiy olqish ishorasi bo'lib qolmay, ommaviy itoat, mexanik konformizm va boshqariladigan jamoaviy harakatning markaziy semiotik o'zagiga aylanadi. Muallif "chapak" va "chalpak" o'rtasidagi fonetik yaqinlikdan foydalanib, totalitar muhitni tilning o'zi orqali masxara qiladi, olqishning ichki e'tiqodni yemiruvchi va insonni "shaklga mahkum" qiluvchi mexanizmga aylanganini ko'rsatadi. Qissaning eng muhim kulminasion nuqtasi – arg'imchoq uchayotgan qizaloq tasviri asar poetikasining nafaqat emosional, balki falsafiy markaziga aylanadi: "... Beixtiyor ko'chani naryog'idagi chorburchak hovliga ko'z tashladim. Hovli o'rtasidagi bolalar maydonchasida qaqqaygan g'arib bir qurilma diqqatimni tortdi. Jajjigina bir qizaloq halinchak uchmoqda. Hoynahoy, ota-onasi ishga ketgan, u esa dunyoning turfa o'yinlaridan bexabar, beg'am, betashvish, bolalik zavqiga berilib havolaydi – tushadi, havolaydi – tushadi.

Nogahon ichimda nimadir shavshab-shavdirab, bir xil bo'lib ketdim. Mana, bugun men ketaman, biz ketamiz, bu go'dak, bu norasida qoladi – shu hovli, shu ko'y, shu yurtda. Umrbod. Birdan mashhur shoirimizning mashhur misralari yodimga tushdi:

"Menga alam qilar: tilla baliqcha
Shu ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni".
Ko'zlarimga duvillab yosh keldi..."¹

Xulosa qilib aytganda, Erkin A'zam ijodida metafora poetik bezak yoki lokal uslubiy vosita darajasida qolmay, butun matn poetikasi va ma'no tizimini tashkil etuvchi markaziy badiiy modelga aylanadi. "Guli-guli"da dehumanizatsiya, "Qiyofadosh"da tashqi qiyofa va mohiyat ziddiyati, "Chapaklar va chalpapaklar mamlakatida"da esa totalitar itoat va erkinlik muammosi metaforik tuzilish asosida ochib berilgan. Bu esa Erkin A'zam nasrida metafora qahramon ruhiyatini, ijtimoiy muhitni va ma'naviy-axloqiy inqirozni badiiy model darajasida ifoda etuvchi konseptual va poetik mexanizm sifatida namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

Bobning "Poetik til va tasviriy-ifodaviy vositalar tizimi" faslida Erkin A'zam asarlarida badiiy tilning poetik xususiyatlari, metafora, tashbeh, epitet, kinoya, qahramon nutqi va tasviriy-ifodaviy vositalarning obraz yaratish hamda muallif individual uslubini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilindi.

Mazkur faslda badiiylik so'z san'atining asosiy belgisi sifatida talqin qilinib, u voqelikning oddiy axborot emas, balki ijodkor estetik ongida qayta ishlangan, obrazli ifoda orqali yangi ma'no qatlamlarini hosil qiluvchi san'atkorona model

ekani asoslanadi. Badiiylikni faqat sub'yektiv idrok bilan cheklash mumkin emasligi, uning tasvir aniqligi, ifoda jonliligi, kompozision yaxlitlik, obrazlar izchilligi va g'oyaviy-estetik konsepsiyaning butunligi kabi mezonlar bilan namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Shu ma'noda so'z san'atida voqelikni bilishning o'zi kifoya emas, balki uni badiiy shaklga solish, obrazli tizimga aylantirish va o'quvchi ongiga ta'sirchan yetkazish ijodkor mahoratining hal qiluvchi sharti hisoblanadi.

Faslda badiiylikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida badiiy til va badiiy nutq masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. V.V.Vinogradov¹ va R.Normurodov² qarashlari asosida badiiy til milliy til imkoniyatlarining estetik qayta ishlangan shakli, badiiy nutq esa shu imkoniyatlarning matnda amalga tushgan dinamik ko'rinishi ekani ko'rsatiladi. Bekpo'lat Umurqulov ta'kidlaganidek, badiiy nutq lingvopoetik tahlilda faqat fikr ifodalovchi vosita emas, balki obrazlilikni yaratuvchi asosiy poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi³. Shu bois muallif nutqi, personaj nutqi, dialogizm va polifoniya asarning estetik dinamikasini belgilaydigan muhim omillar sifatida talqin qilinadi.

Erkin A'zam ijodida badiiy nutqning tabiiyligi va hayotiyiligi uning uslubi individualligini belgilaydi. Adib har bir so'zni muayyan poetik vazifaga bo'ysundirib tanlaydi; so'z asarda faqat ma'no tashuvchi birlik emas, balki xarakter, muhit va muallif munosabatini ochuvchi belgiga aylanadi.

Erkin A'zam til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanib, har bir so'zni muayyan badiiy vazifaga bo'ysundirgan holda tanlaydi. Uning "Momaqaldiraq ostida sayr" romani misolida nutqning ko'pqavatli poetik tuzilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Roman badiiy nutqning obraz yaratishdagi markaziy rolini yaqqol namoyon etadi. Asarda personaj nutqi individual xarakterni ochish vositasi bo'lsa, muallif nutqi aksiologik-estetik nuqtayi nazarni belgilaydi. Bu ikki qirra o'zaro ta'sirda polifonik tuzilishni vujudga keltiradi. Masalan, "Sel" epizodida Iskandar nutqi qahramonning shijoatli tabiati va ijtimoiy mavqeini ochib beradi: "Jiyani tutqazgan yapasqi idishni u boshini orqaga tashlagancha og'zidan qulqullatib ichadi. Gazak o'rniga yengi bilan labini artib qo'yadi-da, idishni jiyaniga uzatadi. Jiyani tortingandek bo'lganini ko'rib jahl qiladi:

"– Ol, ol! O'ldirmaydi! Tog'ang shu bilan tirik-ku! – Keyin yana bir muddat tevarakka alanglagach, maslahat solib deydi: – Bunday qilsak, jijan. Huv etakkacha borib, tekis, suyriror joydan pastga enamiz-da, sayoz bir yerini ko'zlab kechib o'tamiz.

– E, tog'a, nima deyapsiz, apasniy-ku! – deydi ichkilikdan ko'zlari yoshlanib ketgan jijan. – Apasniy!

– Gapga kir! Oltimish-yetmish kilometr ga uloqib yurasanmi?! Davay, moshinani bur!"⁴

Matndagi Iskandar nutqidagi imperativ shakllar, qo'pol-intonasion qat'iyat va ruscha aralashmalar ("davay") uning hokimiyatga o'rgangan, vaziyatni muhokama

¹ Виноградов В. Проблемы русской стилистики. – Москва: Наука, 1981. – С. 184-185

² Нормуродов Р. Шукур Холмирозавнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2003. – Б. 6.

³ Умурқулов Б. Бадий наър жозибаси. – Тошкент: Мухаррир, 2021. – Б. 7.

⁴ Аъзам Э. Момакалдирақ остиди сайр. – Тошкент: SANHOF, 2025. – Б. 8.

¹ Аъзам Э. Чапаклар ва чалпаклар мамлакати / Пакининг ошиқ кўнгли: Уч қисса ва уч ҳикоя. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б.165-166.

emas, buyruq orqali hal qiluvchi tabiatini ko'rsatadi. Nutqdagi tezkorlik va keskinlik uning impulsivligi, psixologik tajovuzkorligi va o'zini ustun qo'yish odatini semantik belgilar sifatida namoyon etadi. Demak, personaj nutqi bu yerda xarakterning tashqi ko'rinishi emas, balki uning ichki irodaviy markazining ifodasidir.

Erkin A'zam ijodida tasviriy-ifodaviy vositalar tabiiy nutq ichiga singdirilgan holda keladi. Ular sun'iy uslubiy "bezak" emas, balki xarakter va muhitni ochuvchi poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "sel", "ko'prik", "jannatniy manzara" kabi obrazlar nafaqat tasviriy vazifa, balki ramziy-ma'naviy yuk ham tashiydi. Sel bu yerda tabiiy stixiya emas, balki ijtimoiy siljish va beqarorlik modeli sifatida namoyon bo'ladi; yarim o'pirilgan ko'prik esa ma'naviy uzilish va qadriyatlar muvozanatining buzilishi ramziga aylanadi.

Romandagi psixologik dramatism, avvalo, ichki monologlarda namoyon bo'ladi. Masalan: "O'sha kun, o'sha soatda shusiz ham o'ksik ko'ngil sindi, ko'ngil ne, o'ziga yarasha orzular bilan yashayotgan bolalik dunyosi vayron bo'ldi. Endi o'ylansa, keyingi umr ana shuni chegalash, yamash, qaytadan tiklash tashvishi bilan o'tibdi. Singan narsa baribir mo'rt, omonat bo'lar ekan" (22-bet).

Ushbu parchadagi "ko'ngil sindi", "bolalik dunyosi vayron bo'ldi" kabi ifodalar oddiy his-tuyg'u bayoni emas, balki harakatli psixologik metafora namunasidir. "Sinish" va "vayron bo'lish" leksemalari moddiy predmetlarga xos harakatni anglatadi. Ularning ruhiy holatga ko'chirilishi ichki iztirobni moddiy vayrona obrazi orqali ko'rsatadi. Natijada bolalik xotirasi shaxsiy alam darajasidan chiqib, butun ichki olamning parchalanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, "chegalash", "yamash", "qaytadan tiklash" kabi fe'llar metaforani davom ettirib, ruhiy holatni "singan buyum" modeli asosida rivojlantiradi. Shu tariqa ichki dramatism bir martalik iztirob emas, balki butun umr davom etadigan ruhiy evrilish jarayoni sifatida tasvirlanadi. "Singan narsa baribir mo'rt, omonat bo'lar ekan" degan xulosa esa metaforani umumlashtirib, qahramon ruhiyatidagi beqarorlik va himoyasizlik hissini kuchaytiradi. Mazkur ichki monolog ruhiy holat poetikasida markaziy o'rin tutadi. Metafora bu yerda qahramonning psixologik tuzilishini ochuvchi semiotik belgi vazifasini bajaradi.

Erkin A'zam ijodida ruhiy holatni tasvirlash oddiy psixologik bayon orqali emas, balki obrazli nutq vositalari orqali amalga oshiriladi. Yozuvchi qahramonning ichki kechinmalarini to'g'ridan-to'g'ri izohlamaydi, aksincha, ularni metafora, detal, jismoniy hissiylik va ramziy obrazlar orqali ko'rsatadi. Shu jihatdan romanda ruhiy holat poetikasi alohida tizim sifatida namoyon bo'ladi. Asarning bir o'rnida kelgan "Iskandarning yuragi g'ijimlanib ketdi" (13-bet) ifodasi ruhiy iztirobning moddiy-harakat modeli orqali berilgan psixologik metaforadir. "Yurak" hissiy markazni, "g'ijimlanish" esa ezilish va bosim semantikasini ifoda etadi. Shu tariqa ichki iztirob statik holat sifatida emas, balki bosim ostidagi, tarang va ezilgan ruhiy kechinma sifatida namoyon bo'ladi. Bu harakatli metafora qahramon ruhiyatidagi dramatik kuchlanishni yanada chuqurlashtiradi.

Badiiy matnda qo'llanilgan sheva elementlari, arxaizmlar, neologizmlar, jargon yoki kasbiy leksika obrazning ijtimoiy muhitini konkretlashtirishga xizmat

qilsa, so'z o'yinlari, semantik siljishlar va metaforik ko'chishlar ma'no qatlamlarini kengaytirib, matnning estetik ta'sirchanligini oshiradi. Shu jihatdan badiiy til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki milliy tafakkur, tarixi xotira va madaniy tajribaning estetik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi sheva elementlari, xalqona iboralar va nutqiy detallarni mahorat bilan qo'llab, matnga milliy kolorit baxsh etadi. Bunday leksik tanlov personajning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy muhiti va dunyoqarashini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Natijada nutq obrazning tashqi bezagi emas, balki uning ichki tabiatini ochuvchi poetik mexanizmga aylanadi.

Erkin A'zam ijodida personaj nutqining tabiiyligi va hayotiyliigi ko'p jihatdan xalqona nutq elementlari orqali ta'minlanadi. Yozuvchi qahramon nutqini kitobiy uslubga moslashtirib yubormaydi, balki uning ijtimoiy muhiti va hayotiy tafakkurini ifodalaydigan tabiiy nutqiy birliklarni saqlab qoladi. Masalan, "Suv yoqalab" asarida keltirilgan quyidagi nutq parchasi bu holatni yaqqol ko'rsatadi:

